جديد

2026-yil 20-fevral
№ 8 (112)
www.jadid.uz

Tilda, fikrda, ishda birlik!

Jadid

adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

@Jadidrasmiy @Jadidmediauz @Jadidrasmiy @Jadid_uz


Ushbu shukuhli kunlarda barchangizga sihat-salomatlik, oilaviy baxt-saodat, xonadonlaringizga tinchlik va farovonlik tilayman.

Ro‘za kunlarida qilinadigan barcha ibodatlar, ezgu niyat va amallar ijobat bo‘lsin!

Xalqimizni, Vatanimizni Yaratganning o‘zi panohida asrasin!

Ramazon oyi barchamizga muborak bo‘lsin!

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat MIRZIYOYEVning Ramazon tabrigidan



SIYOSAT

TINCHLIK KENGASHI SAMARASI

Vashington shahrida ta’sischi davlatlaridan biri O‘zbekiston bo‘lgan Tinchlik kengashining birinchi sammiti bo‘lib o‘tdi. Davlatimiz rahbari tashrif doirasida sammitdan tashqari, AQSH rasmiylari va bir qator ishbilarmonlar bilan uchrashuvlar o‘tkazdi.



O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Amerika Qo‘shma Shtatlari Prezidenti Donald Trampning taklifiga binoan 17-19-fevral kunlari amaliy tashrif bilan ushbu mamlakatda bo‘ldi.

Vashington shahridagi Tinchlik institutida bo‘lib o‘tgan sammit G‘azo sektorini tiklash, unga gumanitar yordam ko‘rsatish, ushbu mintaqada tinchlik va barqarorlikni ta’minlash masalalariga bag‘ishlandi. Tinchlik kengashining ilk yig‘ilishi xalqaro munosabatlar tizimida yangi formatdagi muloqot platformasi sifatida namoyon bo‘ldi.

Prezidentimizning mazkur anjumanga taklif etilishi Yangi O‘zbekistonning dunyo sahnasida turli global masalalarda faol tashabbuskor sifatida e’tirof etilishining belgisidir. Xususan, Falastindagi ziddiyatni tinch yo‘l bilan hal etish, mojarodan jabr ko‘rayotgan aholining xavfsizligi va farovonligini ta’minlash bo‘yicha ilgari surilgan takliflar hamda ko‘rsatilayotgan gumanitar yordam o‘zining ijobiy natijalarini bermoqda.

Mazkur nufuzli kengash O‘zbekistonning tinchlikni saqlash, ko‘p tomonlama hamkorlik va xalqaro ishonchga asoslangan tashqi siyosati mantig‘iga mos keladi. Bugun O‘zbekiston xalqaro miqyosda mas’uliyatli, ishonchli va tinchlikparvar sherik sifatida qabul qilinadi. Shuning uchun mamlakatimizning kengashga qo‘shilishga taklif qilinishi juda o‘rinlidir.

Bundan tashqari, davlatimizning Tinchlik kengashida ishtiroki muhim xalqaro masalalar bo‘yicha o‘z pozitsiyasini samarali ifoda etish imkonini beradi.

Mazkur tashabbus Markaziy Osiyo–AQSH muloqotini yangi strategik bosqichga olib chiqishga amaliy zamin yaratadi. Barcha sohalarda erishilgan kelishuvlarni amalga oshirishda zamonaviy diplomatiya mexanizmlari, usul va vositalarini qo‘llash imkoniyatlari kengayadi.

(Davomi 2-sahifada).

VATAN MANZUMASI



Halima XUDOYBERDIYEVA

* * *

Yurt bayrog‘in har joygamas,
Ko‘nglingga ek. Ko‘ksingni o‘y.
Ishlov bergin, yumshatib tur,
Ildiz otsin, ko‘rsatsin bo‘y.

To bu bayroq, Vatan, nurlar
Ich-ichingga ketsin kirib,
Toki g‘anim – vatanxo‘rlar
Ololmasinlar sug‘urib.

Shunday o‘rgat qulni, xonni,
Uchmas qush ham uchar bo‘lsin.
To bayroqdan oldin jonni
Bermak oson kechar bo‘lsin.

ILM YO‘LI

KELAJAK KALITI

O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi, akademik Dilorom YUSUPOVA bilan suhbat

– Ustoz, ilmiy ishingizni Amir Temur va Buyuk Temuriylar davriga oid yozma manbalar tadqiqidan boshlagansiz. Qo‘lyozmalarni kataloglashtirish ham faoliyatingizning katta qismini tashkil etadi. Gapni ushbu murakkab jarayon bilan qisqacha tanishuvdan boshlasak.

– Toshkent davlat universitetining Sharq fakultetini tugatgach, yo‘llanma bilan O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutiga ishga yuborildim. Katta avlod olimlari bilan ishlash, qo‘lyozmalar ustida mehnat qilish men uchun haqiqiy maktab bo‘ldi. Ilmiy ishimda Amir Temur hokimiyatga kelishidan biroz oldingi davrdan boshlab, uning hukmronligi va Temuriylar davom ettirgan siyosiy-ijtimoiy jarayonlar o‘rganildi.

Fasih Xavofiyning “Mujmali Fasihiy” asaridan tadqiqot manbasi sifatida foydalandim. Voqealarning yilma-yil bayon qilingani bu asarning o‘ziga xos jihatidir. Qaysi yili kim tug‘ilgan yo vafot etgan, qanday urushlar boshlangan, savdo, qurilish, tibbiyotga oid ma’lumotlar, hatto, tabiiy ofatlargacha aniq qayd etilgan. 1974-yilda noyob manba asosida nomzodlik dissertatsiyamni himoya qildim.

(Davomi 4-sahifada).

TAASSUROT



MUMTOZ MUHABBAT MAMLAKATI

Hindiston deyilganda, biz kabi yoshi ulug‘ insonlar xotiriga beixtiyor “Sangam” badiiy filmi keladi. Chunki muhabbat madhiga aylangan bu film ekran yuzini ko‘rgan yillarda hali barcha xonadonlarda televizor atalmish “mo‘jiza” yo‘q edi. Tuman markazidagi yagona kinozalga kirishdagi ur-to‘polonlar haqida gapirmasa ham bo‘ladi. Shu bois, mahallada kimning uyida televizor bo‘lsa, xonadon sohiblarining qosh-qovog‘iga qaramay, “Sangam”ni ko‘rishga kirib boraverganmiz...

Faqatgina u emas, aslida, barcha hind filmlari muhabbat haqidagi sof qo‘shiqlar bo‘lib, tillarda ham, dillarda ham jaranglardi. Bu jarang ko‘ngilni tug‘yonga, yurakni o‘tga solar, ko‘zlarni yondirar, vujudingizni kuydirardi. Bizning bolalik tasavvurimizda Hindiston samimiy sevgi saltanati, otashin oshiqlar oshyoni, guldek go‘zallar go‘shasi – mumtoz muhabbat mamlakati bo‘lib porlab turardi. Yillar o‘tib, qo‘limiz kitob ko‘rib, ongimiz tiniqlashganda, nazarimiz tiyraklashib, dunyoga qalb ko‘zi ila boqqanimizda, anglab yetdikki, Hindiston faqat ishq-sevgi yurti emas, balki dunyo tamadduniga katta hissa qo‘shgan chinakam daholar diyori ham ekan.

Shukurkim, yosh yetmishdan oshganda, bizga ham shu qutlug‘ o‘lkaga safar qilish nasib etdi. Ijodkor borki, ko‘zi ko‘rsa, qo‘li qalam qidiradi. Shu ma’noda, ko‘zimga Hindiston ko‘rsatgan hayratni, dilimga o‘sha mashhuri jahon – Toj Mahal to‘kkan tarovat tavsifini aziz yurtdoshlarimga ham ilingim keldi.

HIND SORI CHORLAGAN ISTAK

Dunyoning yangi yetti mo‘jizasining biri Hindistonda va ne baxtki, u bizning ulug‘ ajdodimiz Zahiriddin Muhammad Bobur avlodlari tomonidan bunyod etilgan! Kaminani yarim asrdan buyon Hind soriga chorlab turgan istak – shu xilqatni o‘z ko‘zlarim bilan ko‘rish orzusi edi.

Hind diyorida qadimdan ilm-fan, ayniqsa, tabiiy fanlar taraqqiy etgan. Shu taraqqiyot va ilm-u hikmat maxzanidan bahramand bo‘lish niyatida Abu Rayhon Beruniy 45 yoshida sanskrit tilini o‘rgangan ekan. Bu o‘lkada kechgan o‘n ikki yillik hayoti mahsuli sifatida “Hinduston” nomli kitob yaratgan. Ibn Sino tib sohasidagi chuqur izlanishlarida hind xalq tabobati sirlariga murojaat etgan. Amir Temur davrida ikki mamlakat o‘rtasida savdo aloqalari o‘rnatilgan.

(Davomi 5-sahifada).

FAKT

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Muborak Ramazon oyida ehtiyojmand aholini davlat tomonidan ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash choralari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi.
- Dushanbeda bo‘lib o‘tgan Savdo-iqtisodiy hamkorlik bo‘yicha 13-hukumatlararo komissiya yig‘ilishida Tojikiston Bosh vaziri Qohir Rasulzoda va O‘zbekiston Bosh vaziri Abdulla Aripov ishtirok etdi.
- Saudiya Arabistonida o‘tkazilgan velosshosse bo‘yicha Osiyo chempionatida O‘zbekiston ayollar terma jamoasi 1169 ochko bilan qit’ada birinchi o‘rinni egalladi.

“JADID” MEHMONI

DILEMMA:

QADRIYAT yoxud TARAQQIYOT?

Tokio universiteti professori Kaoru IOKIBE bilan suhbat

Tokio universiteti – Yaponiyaning nufuzli oliy o‘quv yurtlaridan biri. 150 yillik tarixga ega dorilfununda o‘ttiz mingga yaqin talaba tahsil oladi. Bitiruvchi va professorlardan 14 nafari Nobel mukofotiga sazovor bo‘lgan. Zamonaviy Yaponiya siyosati va diplomatiyasi bo‘yicha ko‘zga ko‘ringan mutaxassis – professor Kaoru Iokibe bilan suhbatimiz universitetning Sharq-u G‘arb ruhini o‘zida mujassam etgan kampusida kechdi.

– Atoqli ingliz siyosatdoni Uinston Cherchillga nisbat beriladigan shunday naql bor: “Demokratiya – boshqaruvning yomon shakli, ammo insoniyat hamon undan durustrog‘ini o‘ylab topmadi”. Temir olovda toblanganidek, demokratik tartibot ham turli sinov-imtihonlarda sayqal topadi. Muhtaram professor, Yaponiyaning siyosiy tadriji va islohotlar tarixini o‘rgangan olim sifatida bugun mamlakatingiz demokratiyasi oldida turgan qay bir muammoni o‘ta dolzarb deb aytgan bo‘lar edingiz??

– Nazarimda, hozir Yaponiya uchun asosiy muammo bu fuqaroviy demokratiyadir.

(Davomi 2-sahifada).

OGOHLIK

GEOMA’NAVIY XAVFSIZLIK

RADIKALIZM VA EKSTREMIZMNING MEDIALASHUVI

Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar, raqamli platformalar va virtual kommunikatsiya tizimidan iborat global axborot muhiti geoma’naviy tahdidlarning zamonaviy tabiatini – ong, dunyoqarash va jamoatchilik fikriga qaratilgan axborot ta’siri mexanizmlarini yaqqol namoyon etadi va bunday tahdidlar uchun qulay infratuzilma va makon vazifasini o‘taydi.

Bu muhit vositasida axborotni yuqori tezlikda tarqatish, auditoriyani segmentlash va kontentni algoritmlar orqali ommalashtirish, tashqi g‘oyaviy ta’sirni bardavom jarayonga aylantirib, jamiyatda muayyan kayfiyat va qarashlarni shakllantirish hamda tabiiy holat sifatida qabul qildirish mumkin. Raqamli platformalardagi algoritm va targeting mexanizmlari jamoatchilik ongiga ta’sir o‘tkazib, ijtimoiy muhokamani qutblashtirish, muayyan qarashlarga ustuvorlik yuklash va axborot muhitini



(2-maqola)

parchalangan “haqiqatlar” maydoniga aylantirish imkonini beradi.

Shu sababli, terroristik va ekstremistik guruhlar radikal g‘oyalarni media mahsulotga aylantirgan holda keng tarqatish strategiyasini faol qo‘llaydi.

(Davomi 3-sahifada).

TINCHLIK KENGASHI SAMARASI



Boshlanishi 1-sahifada.

Ayni paytda, O‘zbekiston–AQSH munosabatlarini yanada rivojlantirishning yangi yo‘nalish va mexanizmlarini ishlab chiqishni kun tartibiga qo‘yadi.

Vashingtonda davlatimiz rahbari AQSH yetakchisi Donald Tramp bilan uchrashdi. Bu ikki yetakchi o‘rtasida so‘nggi olti oy ichida to‘rtinchi bor uchrashuv o‘tkazilishi – shunchaki diplomatik protokol emas, balki ikki davlat o‘rtasidagi strategik ishonchning yuqori darajasidir. Bunday jadal muloqot O‘zbekistonning nafaqat Markaziy Osiyodagi muhim rolini, balki global inqirozlarni hal etishda xalqaro hamjamiyat uchun ishonchli sherikka aylanganini ko‘rsatadi.

Bilamizki, ikki davlat o‘rtasida savdo-iqtisodiy hamkorlik izchil ravishda kengaymoqda. Iqtisodiy kun tartibi an’anaviy savdodan tashqariga chiqib, qo‘shma sanoat va investitsiya loyihalari, logistika, fuqaro aviatsiyasi, agrosanoat kompleksi, metallurgiya sohalaridagi hamkorlik, shuningdek, ta’minot zanjirlarini boshqarishda raqamli va innovatsion yechimlarni joriy etish kabi yangi yo‘nalishlarni qamrab olmoqda. O‘zbekiston va Qo‘shma Shtatlar o‘rtasidagi iqtisodiy va investitsiya aloqalari so‘nggi sakkiz yil ichida sezilarli o‘sish va tarkibiy o‘zgarishlarni namoyish etgani fikrimizni isbotlaydi.

2018-yilda ikki mamlakat prezidentlari Vashingtonda uchrashganida, iqtisodiy munosabatlar nisbatan kamtarona edi. O‘sha paytda 45 ta qo‘shma korxona faoliyat yuritgan, ikki tomonlama savdo hajmi taxminan 215 million dollarni tashkil etgan va yillik investitsiya oqimi 23 million dollardan oshmagan. Sakkiz yildan so‘ng vaziyat keskin o‘zgardi.

2025-yilga kelib, O‘zbekistonda AQSH bilan hamkorlikdagi qo‘shma korxonalar soni 340 taga yetdi, bu 2018-yilga qaraganda deyarli sakkiz baravar ko‘p demakdir. Savdo hajmi taxminan 1 milliard dollar atrofida, bu sakkiz yil oldingi vaziyat bilan taqqoslaganda, qariyb besh baravar oshganini namoyish etadi. Yillik investitsiya oqimi esa 840 million dollarni tashkil etdi – bu raqam 2018-yilga nisbatan 35 baravar ko‘p.

Mamlakatlarimiz o‘rtasidagi hozirgi aloqalar nafaqat tovarlar almashinuvini, balki mustahkamlanib borayotgan sanoat va moliyaviy hamkorlikni ham anglatadi.

Prezidentimiz tashrif davomida AQSH savdo vaziri Xovard Latnik bilan uchrashdi, Eksport-import banki prezidenti va raisi Jon Yovanovich hamda Xalqaro moliyaviy taraqqiyot korporatsiyasi (DFC) bosh ijrochi direktori Ben Blek, savdo vakili Jeymison Grirni qabul qildi.

Shuningdek, Davlatimiz rahbari AQSH hukumati va moliya institutlari vakillari – savdo vakili Jeymison Grir, Prezidentning maxsus vakili Paolo Zampolli, Eksimbank prezidenti va raisi Jon Yovanovich, AQSH–O‘zbekiston savdo palatasi raisi Kerolin Lemm, shuningdek, “Traxys”, “Valmont Industries”, “Gulf Oil”, “Avigen Broiler Breeding Group”, “John Deere”, “BlackRock Financial Markets Advisory”, “Oppenheimer” va boshqa yetakchi kompaniyalar rahbarlari ishtirokidagi ikki tomonlama hujjatlarni imzolashga bag‘ishlangan marosim va qo‘shma loyihalar taqdimotida ishtirok etdi.

Eng asosiysi, O‘zbekiston qisqa vaqt ichida savdo va investitsiyalari cheklangan mamlakatdan sanoat, moliya va xizmatlar sohasida Qo‘shma Shtatlarning faol hamkoriga aylandi, bu qo‘shma korxonalar, savdo va investitsiyalar oqimining keskin o‘sishi bilan tasdiqlanadi.

Shu nuqtayi nazardan, davlatimiz rahbari iqtisodiyot O‘zbekiston va AQSH o‘rtasidagi strategik sheriklikning asosiy tayanch nuqtalaridan biri ekanini ta’kidladi.

Qo‘shma Shtatlar bilan hamkorlikning ustuvor yo‘nalishlari qatorida o‘ta muhim xomashyo, neft-kimyo, energetika, qishloq xo‘jaligi, parrandachilik va boshqa tarmoqlarni eslatib o‘tish joiz. Davlatimiz rahbari huzurida muhim kelishuvlar – yoqilg‘i quyish shoxobchalari tarmog‘ini qurish, yomg‘irlatib sug‘orish texnologiyalarini joriy etish, muhim minerallarni qazib olish va yetkazib berish, parrandachilik klasterini tashkil etish, agrosanoat, moliya bozorini rivojlantirish hamda investitsiya muhitini yaxshilash bo‘yicha ikki tomonlama hujjatlar imzolandi.

Davlatimiz rahbarining Vashingtonga tashrifi – Yangi O‘zbekistonning dunyo sahnasidagi mustaqil, pragmatik va kuchli pozitsiyasining tasdig‘idir. Ushbu muloqotlar natijasi o‘laroq, mintaqamizda barqarorlik yanada mustahkamlanadi, iqtisodiyotimizga innovatsiyalar kirib keladi va xalqimizning farovonligi uchun yangi imkoniyatlar eshigi ochiladi.

Jamoliddin BADALOV

DILEMMA:

QADRIYAT yoxud TARAQQIYOT?



Boshlanishi 1-sahifada.

Fikrimni soddaroq tushuntirishga harakat qilaman. Yaponiya aholi kamayishi va keksalar soni ortishidek demografik nomutanosiblikka ro‘baro‘ kelgan. Saylovlarda keksa elektorat yoshlarga qaraganda salmoqliroq tosh bosadi. Yosh avlod nazdida esa, jamiyat ularga nisbatan adolatsiz munosabatda bo‘layotir. Bu hol, ayniqsa, kovid pandemiyasi davrida yaqqol sezildi. Cheklov choralari keksalar hayotini qutqarishda asqotgandir, ammo jismi joniga sig‘magan yoshlarga “oyoq-qo‘lning ipsiz bog‘lab qo‘yilishi” xush kelmagani aniq. Pandemiyadan keyin Yaponiyada yoshlar manfaatlarini himoya qilishni bayroq etgan ko‘plab yangi partiyalar paydo bo‘lgani ham bejiz emas.

AQSH va Yevropada siyosiy muhokamalar immigratsiya mavzusi tegrasida kechsa, Yaponiyadagi birlamchi muammo – avlodlar ziddiyati. Buning ortidan populistik qarashlarni ilgari suruvchi partiyalar ham maydonga chiqayotgani rost, ammo yapon demokratiyasi ildizi poydor daraxtga o‘xshaydi, umidim shuki, populizm shamollari unga jiddiy daxl eta olmaydi.

– Yaponiyada joriy yil 8-fevral kuni bo‘lib o‘tgan parlament saylovida Sanae Takaichi boshchiligidagi Liberal-demokratiya partiya (LDP) ishonchli g‘alabaga erishdi. Sizningcha, endilikda mamlakatda siyosiy iqlim qay tariqa o‘zgaradi?

– Sanae Takaichi partiyasini elektoratning salmoqli qismi dastakladi. 2024-2025-yillarda Yaponiya hukumatiga rahbarlik qilgan Sigeru Isiba hamda Sanae Takaichining siyosiy dasturini muqoyasa etsak, sobiq bosh vazir so‘l qanotga, amaldagisi esa o‘ng qanotga mansubdir. Sanae Takaichi saylovda Vakillar palatasidagi 300 dan ziyod o‘rinni qo‘lga kiritib, siyosiy harakatlar borasida erkinlikka erishdi. Tarafdorlari Sanae Takaichi Xitoy, Shimoliy Koreya, ehtimol, Janubiy Koreyaga nisbatan keskin choralar ko‘rishini kutmoqda, ammo u bunday yo‘l tutmasligi mumkin. Shuningdek, u iste’mol solig‘ini kamaytirishi aytilmoqda. Ammo Sanae Takaichi buni ham ortga surishi hech gap emas. Albatta, u xato qadamlar sabab ishonch boy berilishi mumkinligini teran anglaydi.

– Yapon parlamentarizmida G‘arb tamoyillari va milliy qadriyatlar favqulodda uyg‘unlik kasb etgan, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Kunchiqar o‘lkaning boshqa davlatlarda uchramaydigan qonunchilik an’analari bormi?

– Yaponiya parlamenti G‘arb tamoyillari asosida shakllantirilgan. Qonunchilik idoramizni men “muxolifat uchun jannat” deb ta’riflayman. Parlamentda muxolifat vakili bo‘lsangiz, hukumatga o‘ng‘aysiz savollar yog‘dirishingiz, tanqid-u e’tirozlarga ko‘mib tashlashingiz mumkin. Ta’qib-tazyiq haqida gap bo‘lishi mumkin emas. Hukumat va iqtidordagi partiya sahv-u xatolari uchun uzr so‘rashi, har bir xatti-harakati yuzasidan hisob berishi an’ana tusiga kirgan. Muxolifat o‘z savollariga qoniqarli javob ola bilmasa, qonunchilik tashabbuslarini bloklab qo‘yish vakolatiga ega. O‘zaro muvozanatni ta’minlaydigan bu tizim XIX asrda shakllangan.

Ayrim saylovchilar nazarida muxolifat xarxashalari olamjahon, ammo qo‘lidan tayinli ish kelmaydigan yosh bolaga o‘xshaydi. Muxolifat hokimiyatga kelgach, gardanidagi vazifani uddalay olmagan vaqtlar ham bo‘lgan-da. Masalan, 2009–2012-yillarda Yaponiya demokratik partiyasi LDPni yengib hokimiyatga keldi. Ammo ma’muriyat shu qadar no‘noq siyosat yuritdiki, ko‘pchilikning hafsalasi pir bo‘ldi.

Fikrlarimdan muxolif partiyalar siyosiy hayotda ahamiyatsiz ekan-da, degan xayolga bormang, aslo! Ular boshqaruvda xo‘b tajribakor bo‘lmasa-da, demokratiyani muhofaza qilish, xalq manfaatlarini tamsil etishda kiroyi natijalarga erishayotir.

– AQSHda hokimiyatlarning o‘zaro tiyib turish prinsipi amal qiladi. Hatto, prezident ham Kongress “oq fotihasi”siz anchamuncha ishlarga qo‘l ura olmaydi. Bu borada Yaponiyada vaziyat qanday?

– Savolingizga javob berish uchun 1945-yilgi mag‘lubiyat davrini eslash kerak. Yaponiya Ikkinchi Jahon urushida AQSH, Buyuk Britaniya va Xitoyga qarshi kurashgani ma’lum. Mag‘lubiyatdan keyin Yaponiya ittifoqchi kuchlar, xususan, AQSH qo‘shini tomonidan ishg‘ol etilgan. O‘sha davrda Yaponiya Konstitutsiyasi qayta ko‘rib chiqildi. Urushdan keyin qabul qilingan Asosiy qonun hozirga qadar o‘zgarishsiz saqlanib kelmoqda. Yaponiya Vazirlar Mahkamasida britancha tizim joriy etilgan. Parlamentda esa AQSH ta’sirini sezish mumkin. Qayd etganingizdek, Qo‘shma Shtatlarda hokimiyatlarning bo‘linishi tamal g‘oya hisoblanadi. Bu esa ingliz tizimiga asoslangan Vazirlar Mahkamasi faoliyatida nomuvofiqlik keltirib chiqarishi mumkin. A’zolari ko‘pchilikni tashkil etishi vajidan Vazirlar Mahkamasi parlamentni nazorat qilishi kerak, ammo AQSH an’analari bois, Yaponiya parlamenti Vazirlar Mahkamasidan anchagina mustaqil. Sirasi, siyosatda AQSH va Britaniya an’analari yalakatmag‘izdek qo‘shilib, omuxta bo‘lib ketgan.

Yaponiyada LDP uzoq vaqtdan buyon iqtidorda. Odatda, biror qonun loyihasi hozirlangach, partiyaning ichida hijjalab muhokama etiladi. Ammo muhokama yakunlanib, qonun parlament hukmiga havola etilar ekan, siz partiya a’zosi sifatida uni qo‘llab-quvvatlashingiz kerak. Jarayon “quyidan yuqoriga” tamoyili asosida kechadi. Bu, ma’lum ma’noda, bosh vazirning ta’siri susayishiga olib keladi. “Quyidan yuqoriga” tamoyili “sovuq urush” davrida o‘zini oqladi, zero, u kezlar soliq tushumi, daromad ko‘lami katta edi. “Sovuq urush” xotima topgach va aholi soni o‘sishi to‘xtagach, byujet xarajatlarini kamaytirish, g‘aznadagi mablag‘ni rasamadi bilan taqsimlash zarurati kun tartibiga chiqdi. 1990-yillardagi siyosiy islohot shu ehtiyoj bilan izohlanadi.

Hozirda markazlashgan tizimni amalga tatbiq etmoqdamiz. Hukumat rahbarlarining “quyidan yuqoriga” tamoyilidan nechog‘li foydalanishi uning shaxsiyati, iqtidoriga bog‘liq. Sindzo Abe, Yosixide Suga, Fumio Kisida, Sigeru Isiba kabi sobiq bosh vazirlar ana shu yondashuvga sodiq qoldi. Sanae Takaichi qanday uslubni tanlashini vaqt ko‘rsatadi. O‘ylaymanki, u ham “quyidan yuqoriga” tamoyilini afzal ko‘radi. Xullas, Yaponiya siyosati hamisha jo‘shqinligi bilan ajralib turadi.

– Ikkinchi Jahon urushida Yaponiyaning shahr-u kentlari kultepaga aylantirilgani ma’lum. Ulkan iqtisodiy yo‘qotish, insoniy talafotlarga qaramay, mamlakatingiz nisbatan qisqa muddatda oyoqqa turdi, taraqqiyot pillapoyalaridan dadil yuqoriladi. Sizningcha, yapon iqtisodiy mo‘jizasining siri nimada?

– Iqtisodiy o‘sish uchun uch omil zarur: mo‘l-ko‘l arzon ishchi kuchi; tashqi kapital va texnologiyalardan foydalanish imkoniyati; yirik sarmoya kaliti bo‘lmish ishbilarmonlik ruhi. Ushbu uch omil vobasta bo‘lsa, mamlakat iqtisodiyoti ravnaq topadi. Ularni siyosiy kashshoflik bilangina ta’min etmoq dushvor. Ammo siyosat ahli ushbu shartlarni ro‘yobga chiqarishga ko‘mak berishi mumkin – bunga urushdan keyingi Yaponiya yorqin misol.

Birinchi shart. Yaponiya urushga qadar yengil sanoat mahsulotlari eksporti evaziga taraqqiy etishga uringani bois, milliy daromadning cho‘g‘i past edi. Urushdan keyin tarkib topgan yangi sanoat yo‘nalishlari qishloq joylardagi ishchi kuchini ohanrabo kabi o‘ziga tortdi. Ikkinchi shart. Qo‘shma Shtatlar “sovuq urush”da g‘alaba qozonishning strategik sharti o‘laroq, yapon iqtisodiyotini rivojlantirish borasida azm-u shijoat namoyish etdi. Uchinchi shart. 1960-yilda hokimiyatga kelgan Hayato Ikeda ma’muriyati milliy daromadni ikki baravar oshirish rejasini e’lon qilaroq, jamoatchilikni iqtisodiy o‘sish sari safarbar etdi. Bu esa, o‘z navbatida, LDP yetakchiligidagi hukumatga umrzoqlik baxsh etdi. Zero, endilikda siyosiy beqarorlik tadbirkorlarni tashvish-u xavotirga solmas edi...

– Globallashuv deb atalgan o‘pqon aksar millatlarni o‘z domiga tortmoqda. Boz ustiga, universal liberal qarashlarning bosimi ortmoqda. Yaponiya XIX asrda, Meydzi islohotlari davridayoq “Vakon-yosay”, ya’ni “yaponcha ruh, g‘arbona bilimlar” tamoyilini ilgari surgan edi. Bu tamoyil hozir ham amaldami? Ulug‘ mutafakkir Jaloliddin Rumiy: “Har nechuk muyassariyat – mahrumiyat, har nechuk mahrumiyat – muyassariyat”, deya o‘git bergan. Allaqachon insoniyat izn-u ixtiyoridan chiqib ketgan globallashuv yapon milliy o‘zligiga qay darajada ta’sir ko‘rsatmoqda?

– Bu hamisha mushkul-murakkab masala bo‘lib kelgan. Siz zikr qilgan Meydzi restavratsiyasidan keyin Yaponiyada g‘arblashuv va milliy qadriyatlar o‘rtasida oltin o‘rtaliqni topish talabi kun tartibiga chiqdi. XIX asrda Parij, London, Chikago kabi yirik shaharlarda umumjahon ko‘rgazmalari tashkil etilgan edi. Yapon siyosiy yetakchilari, ziyolilari turli davlatlardagi ko‘rgazmalarga tashrif buyurib, g‘arblashuvning umume’tirof etilgan andozasi yo‘qligiga ishonch hosil qilganlar. Deylik, o‘sha kezlar Belgiya Fransiya bilan, Fransiya esa Germaniya bilan o‘zaro raqobat qilgan. G‘arbcha uslubni ko‘r-ko‘rona qabul qilish taraqqiyot emas, tanazzulga yetaklashi tayin edi. Shu bois, yapon o‘zligini saqlab qolgan holda taraqqiyot ne’matlaridan bahramand bo‘lmoq yo‘li tutildi. Obrazli aytganda, Yaponiya jahon chamanzoriga o‘zining xushbo‘y gullarini tuhfa etdi.

Yaponiya bugun ham qudratli “yumshoq kuch”ga ega. Kurrayi arzning turli el-elatlari o‘lkamizga safar qilishni istaydi. Ko‘pchilik Yaponiyani AQSH va Yevropadan farqli muhitga, toza-ozoda makonga ega davlat, deb biladi. Chindan ham shundaymi – xulosani o‘zgalar aytgani ma’qul. Milliy o‘ziga xoslikni saqlash muhimligini Yaponiya hukumati ham yaxshi tushunadi. Shu bois, so‘nggi vaqtlarda milliy filmlar, anime, manga kabi san’at yo‘nalishlari qo‘llab-quvvatlanmoqda. Gap aylanib, yana demografiyaga taqaladi. Nufus qisqarayotgan pallada millatning ayniyatini muhofaza qilish yanada dolzarb ahamiyat kasb etadi.

– Ammo bugun rivojlanayotgan davlatlar milliy qadriyatlar va zamonaviy taraqqiyotdan birini tanlashdek mushkul dilemmaga duch kelayotganidan ham ko‘z yumib bo‘lmaydida...

– Kapitalizm muhitida oldi-sotdi munosabatlari bamisoli jamiyatning qon tomiri hisoblanadi. Molim xaridorgir bo‘lsin, desangiz, marhamat, o‘xshashi yo‘q mahsulot ishlab chiqaring. Globallashgan dunyoda oshig‘ingiz olchi bo‘lmog‘i uchun o‘z qadriyatlaringizni ham saqlab qolishingiz muhim. Aslida, globallashuv va milliy qadriyatlar bir-biriga zid emas, bil’aks, bir-birini taqozo etadi.

Qutblashayotgan dunyoda tik oyoqda qolmoq uchun millat o‘zi suv ichgan buloqlarni musaffo holda saqlab qolmog‘i shart. Yapon jamiyati ham bu masalaga hassoslik ila yondashadi. Masalan, “Daikin” brendiga mansub konditsionerlarning butun dunyoda, xususan, Hindistonda bozori chaqqon. Boisi, mahsulotlar yaponcha sifat asosida, ilg‘or usullarda ishlab chiqariladi. Hindiston ulkan davlat bo‘lib, turli mintaqalarida farqli ob-havo kuzatiladi. “Daikin” shirkati esa har bir mintaqa uchun o‘ziga xos xususiyatlarga ega mahsulot taklif etadi. Demak, globallashuv davrida peshqadam bo‘lmoqni istagan mamlakat yolg‘izoyoq yo‘ldan yurib, ilgari hech kim zabt etmagan cho‘qqilarni egallashi kerak.

– Yaponiya Markaziy Osiyo, jumladan, O‘zbekiston bilan robitalarni mustahkamlamoqda. 2025-yil 20-dekabr kuni Tokio shahrida bo‘lib o‘tgan “Markaziy Osiyo + Yaponiya” muloqotining birinchi sammiti hamkorlikning yangi sahifasini ochdi. Nazarimizda, geosiyosiy beqarorlik zamonida o‘zaro aloqalarning ahamiyati yanada ortmoqda...

– Yaponiyaning oddiy xalq vakillari hozircha mintaqaning ahamiyatidan to‘liq voqif bo‘lmasligi mumkin. Negaki, o‘rtamizda kattagina jug‘rofiy masofa bor. Yaponiya girdo-girdi suv bilan o‘ralgan orollardan iborat davlat ekanini ham unutmaslik kerak. Ammo ziyolilar, siyosiy yetakchilar Markaziy Osiyoning strategik ahamiyatini teran anglaydilar. Mintaqa Xitoy va Rossiya o‘rtasida muvozanat nuqtayi nazaridan ham muhim o‘rin tutadi. Markaziy Osiyo barqarorligi Sharqiy Osiyodagi loyihalar uchun ham zarurdir.

Markaziy Osiyo davlatlari bilimli, intellektual darajasi yuqori mutaxassislarga boy. Yaponiya mehnat bozorida taqchillik kuzatilayotgani inobatga olinsa, mintaqaning iqtidorli mutaxassislarini ishga taklif etishdan har ikki tomon yutadi. Tabiiy resurslar, nodir ma’danlar va energetika manbalari bilan bog‘liq hamkorlik ham istiqbolli, albatta.

Boya aytganimdek, oddiy yaponlar Markaziy Osiyo haqida u qadar ko‘p ma’lumotga ega bo‘lmasligi mumkin. Ammo bu muvaqqat holat, ishonamanki, bordi-keldi faollashar ekan, xalqlarimiz bir-biri bilan qosh-u ko‘zdek yaqin bo‘lib ketadi.

– Muhtaram professor janoblari, Sizga o‘zbekistonlik mushtariylarimiz nomidan kattadan katta rahmat aytamiz va mustahkam tani sihatlik tilaymiz!

Sobir SALIM suhbatlashdi.

Boshlanishi 1-sahifada.



GEOMA’NAVIY XAVFSIZLIK



Abdulhamid MUXTOROV,
O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi

Masalan, o‘zini an’anaviy islom ta’limotiga tayanayotgandek ko‘rsatayotgan, ammo mazmunan siyosiy-g‘oyaviy maqsadlarni ilgari suruvchi “soxta salafiylik” tarafdorlari raqamli platformalardan faol foydalanmoqda. Raqamli muhitdagi radikal g‘oyalar “Sof islomga yo‘l”, “Asl dinni tiklash”, “Bid’atlarga qarshi kurash”, “Haq yo‘lga qaytish” kabi chaqiriqlar bilan taqdim etilmoqda. Ushbu targ‘ibot shakli zo‘ravonlikni to‘g‘ridan to‘g‘ri targ‘ib qilmasdan, avvalo, dunyoqarashni o‘zgartirishga qaratilgani bilan xavfli hisoblanadi. Radikal mazmundagi kontentlar ko‘pincha qisqa video, “savol-javob” tarzidagi chiqishlar, podkastlar yoki ijtimoiy tarmoqlardagi sharhlar orqali tarqatiladi. Ularda davlatchilik, qonun ustuvorligi va jamiyatning dunyoviy asoslari ochiq inkor etilmasdan, “ikkinchi darajali”, “nohaq” yoki “botil tizim” sifatida shubhaga olinadi. Shu tariqa, auditoriya ongida qonunga emas, balki muayyan diniy talqinga itoat shakllantiriladi.

Yevropa Ittifoqi doirasida olib borilayotgan institutsional tahlillar onlayn radikal targ‘ibot va raqamli ekstremizm “nazariy xavf” emas, real, tizimli tahdid ekanini tasdiqlaydi. Xususan, Niderlandiyaning Gaaga shahrida joylashgan Europol – Yevropa Ittifoqining huquqni muhofaza qilish sohasidagi hamkorlik agentligi tomonidan e’lon qilinadigan yillik EU Terrorism Situation and Trend Report (Yevropa Ittifoqida terrorizm holati va rivojlanish tendensiyalari hisoboti)da raqamli muhit terrorchilik va ekstremistik faoliyat miqyosi hamda dinamikasini tezlashtiruvchi asosiy omillardan biri sifatida qayd etilgan.

Yevropa Komissiyasi huzurida faoliyat yurituvchi Radicalisation Awareness Network (Radikallashuvdan xabardorlik tarmog‘i) doirasida tayyorlangan tahlillarda ham onlayn radikallashuvning ko‘lami va shakllari haqida chuqur ma’lumotlar keltirilgan. Xususan, ekspert Jo Uittaker tomonidan tayyorlangan “Online radicalisation: what we know” (“Onlayn radikallashuv: biz nimani bilamiz?”) nomli tahliliy hujjatda internet radikallashuv uchun markaziy maydonga aylangani alohida qayd etiladi. Ayniqsa, o‘ng radikal ekstremizm (millat, irq, din yoki madaniy ustunlik g‘oyalariga tayangan holda, demokratik qadriyatlarni inkor etuvchi, jamiyatda nafrat, kamsitish va zo‘ravonlikni oqlashga moyil bo‘lgan siyosiy-g‘oyaviy radikal qarashlar va faoliyatlar)ning raqamli platformalar orqali ommalashishi xavfsizlik uchun jiddiy tahdid sifatida baholanadi.

BMT va xalqaro xavfsizlik tuzilmalarining hisobotlariga ko‘ra, ISHID tashkiloti internet va ijtimoiy media platformalarini targ‘ibot, qo‘rquv ta’sirini kuchaytirish va og‘dirish vositasi sifatida tizimli ravishda qo‘llab kelgan. Bunda ijtimoiy tarmoqlar, video-platformalar, forumlar va yopiq kanallar orqali professional darajada tayyorlangan video, jurnal, infografik materiallar va shiorli kontentlar tarqatilib, zo‘ravonlik – “qahramonlik”, “adolat” yoki “muqaddas burch” sifatida talqin qilingan. Bu esa raqamli muhitda radikallashuvning transchegaraviy xarakter kasb etishiga olib kelgan.

“Arabiston yarim orolidagi “Al-Qoida” bo‘g‘ini o‘zining “Inspire” elektron jurnali orqali radikal g‘oyalarni g‘oyaviy jihatdan asoslab, tashqi auditoriyaga moslashtirilgan motivatsion chaqiriqlardan foydalanadi. Jurnal mazmun jihatidan radikallashuvni rag‘batlantiruvchi maqolalar, zo‘ravonlikni oqlovchi tahlillar hamda amaliy ko‘rsatmalarni o‘z ichiga olib, mustaqil harakat qiluvchi shaxslarni (“yakka terroristlar”) g‘oyaviy jihatdan tayyorlashga xizmat qiladi (Europol. EU Terrorism Situation and Trend Report (TE-SAT). European Union Agency for Law Enforcement Cooperation). Bu holat radikal targ‘ibotning an’anaviy tashkiliy shakllardan tashqariga chiqib, individual ongga qaratilgan media strategiyaga aylanganini ko‘rsatadi.

Somalida faoliyat yurituvchi “Al-Shabab” ekstremist tashkiloti ham raqamli targ‘ibotni faoliyatining asosiy yo‘nalishlaridan biriga aylantirgan. Tashkilot o‘zining Al-Kataib media fondi orqali professional video va audio mahsulotlar, intervyular, bayonotlar hamda hujumlarning tasvirlarini tarqatib keladi. Markaz ishlab chiqqan kontentlar mahalliy va xalqaro auditoriyaga yo‘naltirilgan bo‘lib, ularda zo‘ravonlik “qarshilik”, “himoya” yoki “dinni saqlab qolish” shiorlari bilan oqlanadi. Bu esa raqamli muhitda radikal g‘oyalarning tez tarqalishi va geoma’naviy ta’sir doirasining kengayishiga xizmat qiladi.

Radikal g‘oyalarning medialashuvi va axborot texnologiyalari orqali ommalashuvi shialik ilohiyot maktabi zaminida vujudga kelgan va vaqt o‘tishi bilan muayyan siyosiy-mafkuraviy yo‘nalish kasb etgan “Sheroziylar” harakati faoliyatida ham alohida o‘rin tutadi. Bu haqda siyosatshunos olim O‘.Hasanboyev “Sheroziylar” harakati faoliyatining ayrim jihatlari” nomli risolasida batafsil tahlil va misollarni keltirib o‘tgan. Muallif ta’kidlaganidek, harakat o‘z g‘oyalarini keng auditoriyaga yetkazishda sun’iy yo‘ldosh telekanallari, internet platformalari va ijtimoiy tarmoqlardan faol foydalanib kelmoqda. Xususan, AQSHda ro‘yxatdan o‘tgan Imam Hussein Television Network media guruhi orqali Hotbird, Nilesat, Turksat va Yahsat sun’iy yo‘ldoshlari, shuningdek, YouTube, Facebook, Instagram, TikTok platformalari orqali kontentlar tarqatilishi ushbu harakatning transchegaraviy mediastrategiyaga egaligini ko‘rsatadi. “Sheroziylar” harakati radikal g‘oyalarning medialashuvi muayyan konfessiyaga xos emas, balki axborot muhiti va texnologiyalar bilan uyg‘unlashgan universal jarayon ekanini isbotlaydi. Bu holat geoma’naviy tahdidlarga nisbatan bir tomonlama yondashuv yetarli emasligini, balki barcha diniy, mafkuraviy va siyosiy yo‘nalishlarda namoyon bo‘lishi mumkin bo‘lgan mediaradikalizm mexanizmlarini kompleks tahlil qilish zarurligini anglatadi.

Radikal g‘oyalarning medialashuvida “Hizb ut-Tahrir” harakatining axborot strategiyasiga ham alohida e’tibor qaratish zarur. Ushbu harakat zo‘ravonlikka to‘g‘ridan to‘g‘ri chaqirmasdan, asosan mafkuraviy ta’sir orqali jamiyatdagi mavjud siyosiy va huquqiy tartibni legitimsizlashtirishga urinadi. Raqamli muhitda bunday g‘oyalar elektron jurnal, onlayn byulleten, videoma’ruzalar va ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalar orqali tizimli ravishda tarqatiladi. Mazkur kontentlarda “ummat” konsepti markazga qo‘yilib, milliy davlatchilik, fuqarolik identifikatsiyasi va suverenitet ikkinchi darajali tushunchalar sifatida talqin etiladi. Bu esa auditoriyada milliy mansublik hissini susaytirish, davlat institutlariga nisbatan ishonchni zaiflashtirish va mafkuraviy parokandalikni chuqurlashtirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, yoshlar orasida siyosiy va huquqiy bilimlar yetarli darajada shakllanmagan sharoitda, bunday g‘oyalar “muqobil adolat modeli” sifatida qabul qilinishi mumkin.

Radikal targ‘ibotning medialashuvida keng qo‘llanadigan usullardan biri – binar sxema asosida fikr yuritishdan iborat. Bu sxemada dunyo “haq va botil”, “mo‘min va kofir” kabi qarama-qarshi qutblarga ajratib ko‘rsatiladi. Bunday soddalashtirilgan ritorika murakkab ijtimoiy, siyosiy va huquqiy masalalarni chuqur tahlil qilish imkonini cheklab, emotsional qabulni ustuvor qiladi. Binar yondashuv qisqa roliklar, ta’sirchan iboralar va qat’iy hukm shaklida taqdim etilib, auditoriya ongida “murosasizlik” holatini shakllantiradi. Natijada, tanqidiy fikrlash va muqobil qarashlar borasidagi qobiliyat zaiflashib, jamiyatda qutblashuv kuchayadi.

Diniy radikal mediatarg‘ibotning geoma’naviy tahdidlar tizimida eng xavfli shakllardan biriga aylanishining asosiy sababi, uning inson ongi, axloqiy mezonlari va ma’naviy e’tiqodiga bevosita ta’sir ko‘rsatish qobiliyatidadir. Bu jarayonda din ma’naviy barkamollik vositasi emas, balki jamiyatni qutblashtirish, davlat institutlariga nisbatan ishonchni zaiflashtirish va huquqiy me’yorlarni nisbiylashtirish uchun mafkuraviy qurolga aylanadi. Shu bois, diniy-radikal mediatarg‘ibotga davlatchilik, huquqiy tartib, milliy birlik va ijtimoiy barqarorlikka daxldor bo‘lgan strategik tahdid sifatida qaralishi lozim.

TAHDIDLAR QARSHISIDAGI ZAIFLIK NIMADA?

Tashqi axborot-mafkuraviy ta’sirning samaradorligi faqat uning texnologik yoki media imkoniyatlari bilan cheklanmaydi. U, avvalo, jamiyat ichida mavjud bo‘lgan ma’naviy, ma’rifiy va institutsional zaifliklar bilan bevosita bog‘liq. Aynan shu zaifliklar tashqi g‘oyaviy ta’sirning qabul qilinishi, ichki muhitda mustahkamlanishi va ayrim hollarda qo‘llab-quvvatlanishi uchun qulay ijtimoiy-psixologik zamin yaratadi. Shu bois, geoma’naviy tahdidlarni to‘liq anglash uchun ularni dastaklovchi ichki shart-sharoitlarni tizimli ravishda tahlil qilish o‘ta muhim ahamiyat kasb etadi.

Birinchi ichki zaiflik – milliy-ijtimoiy qadriyatlar tizimining zaiflashuvi bilan bog‘liq. Milliy urf-odatlar, oilaviy qadriyatlar, vatanparvarlik, mehr-oqibat, kattaga hurmat va kichikka izzat kabi negiz ma’naviy asoslarni qadrsizlantirishga qaratilgan axborot ta’siri natijasida, jamiyatda individualizm, loqaydlik va ma’naviy bo‘shliq kuchayishi mumkin. Bunday ma’naviy bo‘shliq sharoitida ijtimoiy birlik zaiflashib, har qanday buzg‘unchi g‘oya uchun “qulay muhit” yuzaga keladi.

Ikkinchi zaiflik – mafkuraviy bo‘shliq va tanqidiy fikrlashning yetishmasligidan iborat. Qat’iy milliy maqsadlar va qadriyatlar tizimi shakllanmagan, tahlil qilish va solishtirish qobiliyati rivojlanmagan jamiyatda manipulyativ axborot qarshiliksiz qabul qilinadi. Uchinchi ichki zaiflik – huquqiy savodsizlikdir. Huquqiy savodi bo‘lmagan kishilar qonunga tartib va himoyaning kafolati deb emas, balki chetlab o‘tish mumkin bo‘lgan to‘siq sifatida qaraydi. Bu holat “o‘zboshimcha adolat”ni oqlash, huquqiy me’yorlarga nisbatan nisbiy munosabatning shakllanishi va radikal chaqiriqlarga moyillikning ortishiga sabab bo‘ladi.

To‘rtinchi ichki zaiflik – diniy kontentlardagi manipulyativ talqinlarni haqiqat sifatida qabul qilishda ko‘rinadi. Diniy mavzudagi video, ma’ruza, serial yoki ijtimoiy tarmoqlardagi chiqishlarni ilmiy va huquqiy asoslarsiz qabul qilish ayrim yoshlarda “qonunga bo‘ysunish shart emas”, degan xulosa shakllanishiga olib keladi.

Beshinchi ichki zaiflik – milliy tarix va davlatchilikka oid masalalarning bir tomonlama talqinlariga nisbatan loqaydlik. Milliy g‘oya va tarixiy xotira zaiflashgan sharoitda tashqi axborot makonida davlatchilikni “tasodifiy”, “sun’iy” yoki “muvaqqat” deb ko‘rsatuvchi qarashlar oson ildiz otishi mumkin. Agar bunday talqinlarga o‘z vaqtida ilmiy va asosli javob qaytarilmasa, yoshlar orasida milliy o‘zlik, suverenitet va davlatchilikning legitimligiga nisbatan shubha kuchayib, jamiyatda ishonch muhiti zaiflashadi.

Oltinchi zaiflik – ijtimoiy adolatsizlik hissi va norozilik kayfiyatining keng tarqalishidan kelib chiqadi. Ishsizlik, ijtimoiy tengsizlik, kamsitish yoki korrupsiya kabi muammolar aholida norozilik va umidsizlikni kuchaytiradi. Bunday psixologik holat radikal guruhlar uchun “tayyor muhit” vazifasini o‘tab, buzg‘unchi g‘oyalarni “adolat” niqobi ostida tarqatish imkoniyatini kengaytiradi.

Yettinchi zaiflik – diniy tushunchalarning siyosiylashuvi va dinning mafkuraviy vositaga aylanishida namoyon bo‘ladi. Diniy me’yor va qarashlarni davlat va qonun ustuvorligidan yuqori qo‘yish dunyoviy davlat tamoyillariga bevosita tahdid soladi.

Sakkizinchisi – milliy o‘zlikning zaiflashuvi. Davlat tili, milliy madaniyat va tarixiy xotirani qadrsizlantiruvchi axborot ta’sirlariga nisbatan loqaydlik jamiyatning ma’naviy barqarorligi uchun jiddiy xavf tug‘diradi. Negaki, milliy qadriyatlar, davlat tilining ijtimoiy mavqeyi, madaniy meros va tarixiy xotira jamiyat va davlat mavjudligining asosiy ma’naviy tayanch ustunlari hisoblanadi.

To‘qqizinchi ichki zaiflik – siyosiy va geosiyosiy savodsizlik, institutsional ongning yetarli shakllanmagani tufayli yuzaga keladi. Davlat boshqaruvi tizimi, davlat organlarining vakolatlari hamda qaror qabul qilish mexanizmlarini chuqur anglamaslik aholini populistik shiorlar, asossiz chaqiriqlar va manipulyativ siyosiy kontent qarshisida himoyasiz qoldiradi. Natijada, murakkab siyosiy jarayonlar soddalashtirilgan va hissiy talqinlar asosida qabul qilinib, jamoatchilik fikri oson boshqariladigan holatga kelib qoladi. Bunday sharoitda suverenitet, tashqi siyosat yoki xavfsizlikka oid masalalar manipulyativ talqin qilinib, aholi ongida noto‘g‘ri tasavvurlar shakllanishi mumkin.

O‘ninchi ichki zaiflik – geoiqtisodiy savodsizlikda. Inflyatsiya, energiya narxlari, logistika, bozor qonuniyatlari kabi iqtisodiy jarayonlarning mohiyatini anglamaslik aholi kayfiyatini oson manipulyatsiya qilish imkonini beradi. Bunda narx-navo oshishi, ishsizlik yoki tovar tanqisligi kabi omillar ayrim manfaatdor subyektlar tomonidan “siyosiy qurol” sifatida ishlatilib, norozilik kayfiyatini kuchaytirish va davlatga nisbatan ishonchni susaytirishga xizmat qilishi mumkin.

Navbatdagi zaiflik geoma’naviy axborot xurujiga qarshi turuvchi media markazlarning rivojlanmagani bilan bog‘liq. Jamiyatda axborot-mafkura ta’sirlarini tizimli tahlil qila oladigan, tezkor javob beradigan va samarali kontr-narrativ, ya’ni zararli g‘oyalarga qarshi qo‘yiladigan, voqelikni sodda, tushunarli va ishonchli tarzda izohlab beruvchi muqobil materiallar yaratadigan professional media markazlarning yetishmasligi oxir-oqibat jiddiy ijtimoiy muammolarning ildiz otishiga sabab bo‘ladi.

Bunday infratuzilmaning zaifligi natijasida turli manbalar orqali kirib kelayotgan g‘oyaviy kontent o‘z vaqtida fosh etilmaydi, tanqidiy tahlil qilinmaydi va jamoatchilikka asosli tushuntirish berilmaydi. Natijada, vujudga kelgan axborot bo‘shlig‘i manipulyativ xabarlar, radikal chaqiriqlar va tashqi g‘oyalar bilan to‘ladi. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlarda faol bo‘lgan yoshlar auditoriyasiga mos til va formatda ishlaydigan milliy media platformalarning yetishmasligi tashqi axborot ta’sirini kuchaytiradi. Bu holat global axborot makonida milliy pozitsiyaning sust eshitilishiga, tashqi va radikal talqinlarning ustunlik qilishi hamda mahalliy auditoriyaning o‘z qadriyatlari va diniy tushunchalarini manipulyativ manbalar orqali anglashga majbur bo‘lishiga olib keladi. Oqibatda, jamiyatda ma’naviy va diniy kun tartibini belgilash tashabbusi milliy institutlar qo‘lidan chiqib, tashqi axborot va mafkuraviy markazlar ta’siriga o‘tadi. Bu esa geoma’naviy xavfsizlik nuqtayi nazaridan o‘ta jiddiy strategik zaiflikdir.

ONG UCHUN KURASHDA YUTQAZISH MUMKIN EMAS

Tahlillardan ko‘rinadiki, geoma’naviy xavfsizlikni ta’minlash epizodik choralar bilan emas, balki tizimli yondashuv bilan amalga oshirilishi shart. Xususan, bir qator strategik choralar ko‘rish, avvalo, axborot, ta’lim, madaniyat, din va raqamli siyosatni uyg‘unlashtirgan va profilaktik yondashuvga asoslangan yagona milliy strategiyani ishlab chiqish zarurati bor. Jamiyatda tanqidiy fikrlash va mediasavodxonlikni ustuvor yo‘nalish sifatida rivojlantirish talab etiladi. Toki, yoshlar axborotni farqlash, manbani tekshirish va manipulyatsiyani anglash ko‘nikmasiga ega bo‘lsin. Qolaversa, diniy soha vakillari faqat o‘z yo‘nalishi bilan cheklanmasdan, huquqiy davlat tamoyillari, milliy tarix, geosiyosiy jarayonlar, axborot va mediakommunikatsiya ko‘nikmalarini ham puxta egallashlari uchun sohada kadrlar salohiyatini kuchaytirish va malaka oshirish tizimini yanada takomillashtirish maqsadga muvofiqdir.

Geoma’naviy tahdidlarni doimiy monitoring va tahlil qilish tizimini joriy etish esa axborot muhitidagi tendensiyalar, radikal diskurslar va manipulyativ kontentni erta aniqlash hamda profilaktik choralarni o‘z vaqtida ko‘rish imkonini beradi.

Jamiyatning ma’naviy immunitetini oshiruvchi eng muhim choralardan biri sifatida, davlat tili, milliy madaniyat, tarixiy xotira va fuqarolik identifikatsiyasini mustahkamlashga qaratilgan kontentlar, tahlil va tezkor munosabatni ta’minlovchi platforma bo‘lgan onlayn teleradiokanal, elektron gazeta va nashriyotni qamragan milliy media markazni shakllantirish lozim. Ushbu muassasa, eng avvalo, axborotni chuqur qayta ishlash, shakllantirish, unga psixologik ta’sirni singdirish imkonini beradi. Qolaversa, huquqiy, siyosiy, geosiyosiy va geoiqtisodiy savodxonlikni oshirish, davlat tili, milliy madaniyat, tarixiy xotira va milliy qadriyatlarni ilgari surish, ilm-fan, kasb-hunar va mehnat madaniyatini targ‘ib qilish, radikalizm, ekstremizm, terrorizm, missionerlik, prozelitizm, narkomaniya, korrupsiya, millatchilik va etnomillatchilikka qarshi axborot kurashini tashkil etish, shuningdek, sog‘lom diniy qarashlar, an’anaviy islom ta’limoti va ma’naviy barkamollikni ommalashtirish kabi strategik yo‘nalishlarga xizmat qiladi.

Media markaz tarkibidagi onlayn teleradiokanal raqamli muhitda eng tezkor va ta’sirchan format vazifasini o‘taydi. Jonli efirlar, tahliliy ko‘rsatuvlar, diniy-ma’rifiy dasturlar hamda tarixiy-siyosiy kontentlar orqali u jamoatchilik ongiga bevosita ta’sir o‘tkazish, dolzarb mavzularga zudlik bilan munosabat bildirish va muvozanatli dunyoqarashni shakllantirish imkonini beradi. Ayniqsa, qisqa videolar va vizual formatlar ustun bo‘lgan raqamli muhitda teleradiokanal yoshlar auditoriyasi bilan muloqot qilishning samarali vositasi hisoblanadi.

Elektron gazeta (onlayn nashr) esa o‘quvchiga chuqur tahlil, mantiqiy izoh va tizimli fikrni yetkazishda o‘ta muhim. Sog‘lom tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan maqolalar, tahlillar va ekspert fikrlarini muntazam e’lon qilish orqali elektron nashr auditoriyada tanqidiy fikrlashni shakllantiradi. Media markazdagi nashriyot bo‘limi uzoq muddatli ma’naviy ta’sirni ta’minlovchi muhim tarkibiy qism bo‘lib, kitob, albom, risola, infografik va tarqatma materiallar orqali milliy qadriyatlar, tarixiy xotira va sog‘lom diniy qarashlarni tizimli va ilmiy asosda ommalashtirish imkonini beradi.

Bugun axborot matn shaklidan tashqari, multimedia, ma’lumotli tahlil, interaktiv ta’lim va raqamli xizmatlarga ham aylantirilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, markazlashgan media markazlar an’anaviy ommaviy axborot vositalariga nisbatan kengroq va moslashuvchan imkoniyatlarga ega. Bunday muassasalar axborotni tarqatishdan tashqari, uni tahlil qilishi, qayta shakllantirishi va maqsadli auditoriyaga moslashi mumkin. Bu esa radikalizmga qarshi kurash, kontr-narrativ yaratish hamda aholining huquqiy, siyosiy va madaniy savodxonligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Media markazlar axborotni matn, video, audio, interaktiv platformalar va API (dasturlar o‘rtasida ma’lumot va funksiyalarni standart qoidalar asosida almashishga xizmat qiladigan interfeys) asosidagi raqamli xizmatlar orqali tarqatadi. Bunday yondashuv axborotni turli auditoriya guruhlariga moslashtirish imkonini beradi.

An’anaviy OAV, odatda, keng va nisbatan statik auditoriyaga yo‘naltirilgan. Media markazlar esa segmentlangan va personallashtirilgan auditoriya bilan ham ishlay oladi. Samaradorlikni baholash masalasida ham farq mavjud. An’anaviy OAVda bu imkoniyatlar cheklangan, media markazlar foydalanuvchilarning real vaqtdagi xulq-atvorini, kontent qamrovi va formatlar samaradorligini aniq o‘lchaydi. Natijada strategiyani tezkor yangilash va optimallashtirish imkoniyati yuzaga keladi.

Tadqiqotlar multimedia va interaktiv formatlarda taqdim etilgan kontr-narrativlar radikal g‘oyalarga nisbatan kuchliroq ta’sir qilishini ko‘rsatadi. Kontr-narrativlar yaratishda yakka turdagi OAV ta’siri ko‘pincha mahalliy darajada qoladi. Media markazlar esa kontr-narrativlarni strategik rejalashtirish, targetlangan auditoriyaga yo‘naltirish va raqamli kanallar orqali samarali tarqatish imkoniga ega. Media markazlar onlayn trendlarni monitoring qilish, xavf guruhlarni aniqlash va tezkor intervensiya ssenariylarini ishlab chiqish imkoniyatiga ham ega. Bu radikal kontentlar ma’no va janr jihatidan tez-tez o‘zgarib turadigan sharoitda, ayniqsa, muhim. Shu bois, BMT ekspertlari axborot xavfsizligi va zo‘ravon ekstremizmning oldini olish sohasida ma’lumotga asoslangan yondashuvni tavsiya qiladi. Media markazlar orqali interaktiv huquqiy kurslar, fakt-cheking platformalari va vizual izohlar ishlab chiqilib, fuqarolarda tanqidiy fikrlash va huquqiy savodxonlik shakllantirilishi mumkin.

Geoma’naviy xavfsizlik davlat siyosati, jamiyat ma’naviy barqarorligi va milliy xavfsizlik manfaatlari tutashgan strategik nuqta. Undagi kechikish yoki loqaydlik nafaqat axborot maydonida, balki jamiyat ongida ham ulkan bo‘shliqni hosil qiladi. Kim jamiyat ongini shakllantirsa, u kelajak yo‘nalishini ham belgilay olishini aslo unutmaslik lozim. Shu ma’noda, bu kurashda yon berishga, sustkashlikka yoki manfaatli yondashuvga yo‘l qo‘yish mumkin emas. Negaki, millat ongi uchun bo‘lgan kurashda yutqazishga haqqimiz yo‘q.

KELAJAK KALITI



Boshlanishi 1-sahifada.

U paytlarda ilmiy ishlar Moskvada tasdiqlanar edi, 1980-yilda asarni rus tilida ilmiy izohlar bilan nashr ettirdim.

Jarayonda institutimizda saqlanayotgan qo‘lyozmalar bilan yaqindan tanishdim. Ular arab, fors va turkiy tillarda yozilgan. Ko‘plab asarlar hali ilmiy muomalaga kiritilmagandi. Bu boylikni dunyoga tanitish uchun faqat tarjima qilishning o‘zi yetarli emas, avvalo, ularni kataloglashtirish kerak. Katalog tuzish – har bir qo‘lyozma haqida aniq va qisqa ma’lumot berish demak: muallifi, yozilgan vaqti, mavzusi, hajmi, nusxalari bor-yo‘qligi va boshqa muhim ma’lumotlar. Men institutning 9- va 11-jild kataloglarini tayyorlashda ishtirok etdim va shu asnoda, katalog tuzish sir-asrorlarini o‘rgandim.

Bugun ikki yo‘nalishda ish olib boraman: birinchisi – manbalarni tarjima qilish va ilmiy izohlash; ikkinchisi – qo‘lyozmalar va litografik nashrlar katalogini tuzish. Chunki dunyodagi yirik markazlar – London, Parij, Sankt-Peterburg kabi shaharlarda qo‘lyozmalar allaqachon kataloglashtirilgan va tadqiqotchilarga ma’lum qilingan. Biz ham o‘z ilmiy boyligimizni jahon ilmiy jamoatchiligiga tanitishimiz kerak. Shu maqsadda ishimni davom ettirib, shogirdlar tayyorlab kelyapman.

– E’tiborlisi, Siz birinchilardan bo‘lib, Ikkinchi Uyg‘onish davri – Temuriylar Renessansi davridagi ta’lim tizimini keng qamrovda o‘rganyapsiz.

– Ilmiy izlanishim davomida Sohibqiron Amir Temur shuncha ulug‘ yurishlar olib borish bilan bir vaqtda, ilm-fan va ta’limga qanday vaqt ajratgani va e’tibor bergani meni qiziqtirib qo‘ydi. Manbalarni o‘rganar ekanman, Temurbek davlat qudratini faqat harbiy salohiyat bilan emas, ilm va madaniyat bilan ham mustahkamlashni maqsad qilganiga amin bo‘ldim. Buyuk Sohibqiron jamiyat taraqqiyotida ilmning o‘rnini juda chuqur anglagan. Shu bois, o‘z bayrog‘ini tikkan o‘lkalardan Samarqandga eng tengsiz boylikni – fozil olimlar, zakovatli me’morlar, qo‘li gul hunarmandlarni olib kelib, ularga barcha sharoitni yaratib bergan.

Bir necha yillar davomida o‘sha davr madrasalari, ularda faoliyat yuritgan ustozlar, o‘qitish tizimi, fanlar taqsimoti, talabalarning o‘qish tartibi kabi masalalarni o‘rgandim. Masalan, talabalar madrasa huzurida yashab ta’lim olganmi, o‘qish necha yil davom etgan, qaysi fanlarga ustuvor ahamiyat berilgan – shu jihatlarni tahlil qildim.

Ta’lim, asosan, o‘g‘il bolalar uchun bo‘lgan, qizlar alohida dars olgan. O‘qish muddati esa bosqichma-bosqich sinf tizimiga asoslanmagan, 14-20 yilgacha davom etgan holatlar bor. Bu esa madrasa ta’limi juda puxta va chuqur bo‘lganini ko‘rsatadi.

Fanlar masalasiga kelsak, Qur’on, fiqh va boshqa diniy ilmlar qatorida, falsafa, tarix, adabiyot va ayrim aniq fanlar ham o‘qitilgan. Ayniqsa, Mirzo Ulug‘bek davrida astronomiya va matematika yuksak darajaga chiqqan. Mudarrislar faqat mahalliy emas, balki boshqa shahar va mamlakatlardan ham kelgan. Samarqandning ilmiy shuhrati shunchalik keng yoyilganki, Turkiyadan Qozizoda Rumiy, Erondan G‘iyosiddin Koshiy kabi olimlar bu yerga kelib faoliyat yuritgan.

Bugun biz yoshlarni rivojlangan davlatlarga bilim olish uchun yuboryapmiz. O‘sha davrda esa, aksincha, boshqa mamlakatlardan yoshlar Turkistonga kelgan. Bu Temuriylar davri ta’lim tizimining qay darajada yuksak bo‘lganini ko‘rsatadi. Men bu mavzuni o‘rganishda faqat tarixni yoritishni emas, balki o‘sha tajribadan bugungi ta’lim tizimi uchun ibratli jihatlarni anglashni ham maqsad qilganman. Xulosa shuki, ta’limga e’tibor bermagan davlat hech qachon rivojlana olmaydi. Amir Temur va uning ma’rifatparvar avlodlari bu haqiqatni yaxshi tushungan.

– Buyuk Temuriylar haqida o‘qir ekanman, ulkan ummon qoshida turganday his qilaman o‘zimni. Siz kabi olimalar esa ana shu bahri muhitning teran qatlariga kirib borib, sirlarni kashf etadi. Shunga qaramay, mavzu bo‘yicha hali ochilmagan, Sizni o‘ylantirib kelayotgan mavzular bo‘lishi, tabiiy…

– Temuriylar davriga oid yechilmagan masalalar juda ko‘p. Ayrim hollarda manbalar yetarli emas, ayrim ma’lumotlar esa, ehtimol, tarixda qayd etilmagan yoki hali topilmagan. Masalan, uzoq yillar davomida Ali Qushchi qachon Turkiyaga ketgani haqida turli fikrlar yurgan. Ko‘pchilik uni Mirzo Ulug‘bek 1449-yilda vafot etganidan so‘ng darhol ketgan, deb hisoblar edi. Go‘yoki Ulug‘bekning fojiali o‘limidan keyin unga Samarqandda ijod qilish imkoni berilmagan, degan qarash mavjud bo‘lgan. Biroq ustozim Asomiddin O‘rinboyev tomonidan Abdurahmon Jomiy maktublari orasida topilgan uchta xat bu masalaga oydinlik kiritdi. Jomiy Alisher Navoiyga yozgan xatida Ali Qushchining Hirot orqali Turkiyaga yo‘l olayotgani, katta yuk – jumladan, Ulug‘bek kutubxonasidan olingan kitoblar bilan ketayotgani haqida xabar beradi. Shu dalillar asosida Ali Qushchining 1469-yillar atrofida ketgani aniqlandi.

Shu kabi ochiq qolgan savollar ko‘p. Masalan, Amir Temur Anqara jangida Sulton Boyazidni yengganidan keyin u yerda qancha vaqt qolgan? Qaysi yo‘l bilan qaytgan? Aniq sana va yo‘nalishlar hali to‘liq oydinlashmagan. Yoki Qozizoda Rumiy – Ulug‘bek bilan birga “Zij” tuzishda qatnashgan mashhur olim. Ammo u qayerga dafn etilgani noma’lum.

Bu masalalarni yechish uchun yangi manbalar kerak. Aytish kerakki, Temuriylar davrining asosiy manbalari bugungi kunda o‘zbek va rus tillariga tarjima qilinib, ilmiy muomalaga kiritilgan. Biroq ayrim asarlar yurtimizda mavjud emas. Shu bois, tadqiqotchilar Tehron, Kembrij, Bombey kabi nashrlardan ham foydalanadilar. Manbashunoslik faqat mahalliy qo‘lyozmalar bilan cheklanib qolmaydi. Biror masalani o‘rganishda barcha mavjud manbalar solishtiriladi, tahlil qilinadi va shundan keyingina ilmiy xulosaga kelinadi.

– Bu davr haqida gap ketganda, eng ishonchli tarixchilardan bo‘lgan ajdodimiz Xondamir, albatta, eslanadi. Uning ijodi doktorlik dissertatsiyangiz obyekti bo‘lgan ekan. Muarrix asarlarida avvalgi tadqiqotchilar e’tiboridan chetda qolgan qanday ma’lumotlarni aniqladingiz?

– Xondamir mashhur tarixchi Mirxondning nabirasi edi. Mirxond Alisher Navoiyning kutubxonasida faoliyat yuritgan va yetti jildli “Ravzat us-safo” asarini yaratgan. Asar Odam Atodan to muallif yashagan davrgacha bo‘lgan tarixni qamrab olgan. Biroq Mirxond yettinchi jildni tugatishga ulgurmay vafot etgan. Uning o‘rnini nabirasi Xondamir egallagan.

Alisher Navoiy Xondamirga katta imkoniyat yaratgan, boy kutubxonadan foydalanish sharoitini bergan. Shu asosda, Xondamir buvasining asarini to‘ldirgan va uni keyinchalik o‘zining “Habib us-siyar” asariga ham kiritgan. Shu bois, yettinchi jild ma’lumotlarini ham “Ravzat us-safo”da, ham “Habib us-siyar”da uchratish mumkin.

Xondamir hayoti davomida 13 ta asar yaratgan. Sakkiztasi bizgacha yetib kelgan, beshtasining faqat nomlari ma’lum. Tadqiqotchilar asosan uning “Habib us-siyar” va “Xulosat ul-axbor” asarlaridan foydalanib kelishgan. Biroq ular kerakli parchalarnigina olgan, asarlar to‘liq manbashunoslik nuqtayi nazaridan o‘rganilmagan edi. Men doktorlik ishimda Xondamirning saqlanib qolgan sakkizta asarini to‘la qamrab oldim: ular qayerda saqlanayotgani, qay tarzda ko‘chirilgani, to‘liq yoki noto‘kisligi, nusxalari soni, mazmuni va tarixiy qiymati haqida atroflicha ma’lumot berdim. Ayniqsa, Xondamir asarlarida shaharsozlik va madaniy hayotga oid juda qimmatli ma’lumotlar bor. U yerda bog‘lar, hammomlar, karvonsaroylar, masjidlar, madrasalar, xonaqohlar haqida batafsil yozilgan. Men ularning barchasini tizimlashtirib, qaysi ma’lumot uning qaysi asarida keltirilganini ko‘rsatib berdim. Bugun tadqiqotchilar Xondamir ma’lumotlaridan bemalol va tizimli ravishda foydalanishi mumkin.

Xondamir nafaqat tarixchi, balki keng qamrovli olim bo‘lgan. Turli fanlarga qiziqqan, she’rlar ham yozgan. Afsuski, uning she’riy bayozlari bizgacha yetib kelmagan, faqat ma’lumotlargina saqlangan.

– Tarixni o‘rganishda qaysi omillarga e’tibor berasiz?

– Bizning sohada fakt muhim. Hozirgi tadqiqotlarda ko‘pincha “falonchi shunday degan” deyishadi, lekin manbaga tayanmagan gapga ishonib bo‘lmaydi. Tarixni faqat qo‘lyozma va hujjatlardan olgan ma’lumotlar bilan o‘rganish kerak. Shu bois, Prezidentimiz ham manbalarni chuqur o‘rganishga urg‘u beradi. Chet eldagi manbalarni aniqlash, olib kelish yoki nusxa ko‘chirish, o‘rganish borasida katta imkoniyatlarni yaratib bermoqda. Bu imkoniyat moddiy va ma’naviy, albatta.

Olim, avvalo, tarix fanini sevishi, oldiga qo‘ygan maqsadni halol bajarishga harakat qilishi, ko‘p o‘qishi lozim. Oldingi tadqiqotlar bilan tanishib, yetuk olimlarning ishini o‘rganishi shart. Faqat unvon uchun emas, balki haqiqiy tarixchi bo‘lish uchun o‘zini ilmga bag‘ishlashi va halol mehnat qilishi kerak. Hozir ilmiy ish qilaman, degan odamga barcha sharoit yetarli, Internet va ko‘p manbalar muomalaga kiritilgan, imkoniyatlar katta. Ilgari manbalar cheklangani tufayli xatolar bo‘lgan. Endi manbalarni o‘rganish, tarjima qilish va tahlil qilish imkoniyati bor, ammo buning uchun sabr va matonat talab etiladi.

– Ustoz, Siz akademiksiz, 10 dan ortiq kitob, o‘nlab kataloglar muallifi, 340 dan ortiq maqolalar muallifisiz. Mana, yaqinda qutlug‘ 85 yoshni qarshilaysiz. Xalq shoiri Anvar Obidjon yozgan edi: “Hatto moviy osmonning bor adog‘i, Ammo oliy tafakkurda sarhad yo‘q”. O‘quvchilarimizga ayni paytda qanday yangiliklar bilan band ekaningiz qiziq. Chunki fidoyi ziyolilar hech qachon tinim bilmaydi.

– Xabaringiz bor, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Buyuk davlat arbobi va sarkarda, ilm-fan, madaniyat va san’at homiysi Sohibqiron Amir Temur tavalludining 690 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi qarori e’lon qilindi. To‘yga to‘yona bilan, deganday, ayni paytda Xondamirning “Maosir al-mulk” asari tarjimasini tayyorlayapman. Tez orada nashrga topshiraman.

Bugungi asosiy vazifam talabalarga ilmiy rahbarlik qilish. Ularga hali hech kim qo‘l urmagan yangi mavzularni tanlashda va ilmiy izlanishlarini yo‘naltirishda yordam beraman.

Shu o‘rinda meni qiynaydigan masala bor. Hozirgi yosh olimlarning rahbarlari ko‘pincha o‘z sohasining mutaxassisi emas. Ilgari dissertatsiyalarning rahbarlari aynan shu soha egasi bo‘lgan va shogirdga chuqur bilim bera olgan. Endi esa rahbar boshqa soha egasi bo‘lgani uchun shogird arosatda qoladi, ilmiy ish sifati pasayadi va fanga putur yetadi. Masalan, men faqat Temuriylar davri va undan keyingi ma’lum asrgacha yozilgan manbalar ustida ishlay olaman. Boshqa sohalarga bilimim yetmaydi, shuning uchun boshqa mavzudagi shogirdlarga yordam bera olmayman.

Har bir shogird sohaning yetuk mutaxassisi rahbarligi ostida bo‘lishi lozim. Rahbar har qadamda shogirdning ishini tekshirib, yo‘l-yo‘riq ko‘rsatib turishi kerak. Ana shunda shogird to‘la bilimli, yetuk mutaxassis sifatida yetishadi. Agar rahbar soha egasi bo‘lmasa, shogird “nogiron” bo‘lib qoladi va keyinchalik o‘z shogirdlariga ham to‘liq bilim bera olmaydi.

To‘rtta kengash a’zosiman, hozir ikkitasida faoliyat yurityapman. Shu kengashlarda himoya qilinayotgan dissertatsiyalarning kamchiliklarini doim ochiq aytaman. Masalan, yaqinda o‘zbeklarning kelib chiqishi masalasini tadqiq qilayotgan yigitga savol berdim: “Oldingi yirik olimlardan farqli ravishda o‘zbeklarning qachon kelib chiqqanini aniq ayta olasizmi?” U: “Ularning oldida ojizman”, dedi. “Unda nimaga bu mavzuni tanladingiz?!”, dedim.

Umuman olganda, sohasidan qat’iy nazar har bir ilmiy ish chuqur tekshirilishi va xatolar tuzatilgachgina himoyaga chiqarilishi kerak. Ana shunda fanda haqiqiy sog‘lom raqobat bo‘ladi va ilmiy sifat oshadi.

– Mazmunli suhbat uchun rahmat! Ustoz, Sizga ko‘p yoshlar havas qiladi. Sizga shogird bo‘lishni orzu qiladiganlari qancha. Ilm-u fan osmonida yo‘lchi yulduz bo‘lib, mudom bizga haq yo‘lini ko‘rsatib yuravering.

– Ramazon oyi elimizga baxt-u sodat keltirsin! Sizgayam rahmat, qizim!

Vasila HABIBULLAYEVA suhbatlashdi.

TARIX VA TAQDIR

KOMIL XORAZMIY KIM EDI?

Tarixga nazar tashlasak, yurtni ma’rifat orqali ozodlikka olib chiqishga qat’iy bel bog‘lagan jadidlar orasida uch xonlikda katta mavqega ega, yuqori davlat lavozimlarini egallagan insonlar ham bo‘lganini ko‘ramiz. Masalan, Qo‘qon xonligi shahzodasi Fansurullohbek, Buxoro amirligi muftiysi Mahmudxo‘ja Behbudiy, Xiva xonligi bosh vaziri Islomxo‘ja va boshqalarning jadidlarga xayrixohligi harakatning yanada keng tomir yozishiga xizmat qilgan.

...1873-yilning bahorida chor hukumati Xiva xonligi ustiga qudratli qo‘shin bilan uch tomondan bostirib keladi. Dushman yaqinlashayotgani xabari tarqalgan kezlarda vaziyatni qanday bartaraf qilish masalasida saroyda ketma-ket harbiy mashvarat chaqiriladi. Matmurod devonbegi boshliq guruh dushmanga qat’iy qarshilik qilishni taklif qilsa, Pahlavon Niyoz mirzaboshi boshliq guruh sulh tarafdori bo‘lib maydonga chiqadi. Muhammad Rahimxon soniy ikki guruh fikrlarini eshitib, harbiy imkoniyatlari bir qadar cheklanganini bilsa-da, qarshilik qilish tarafdorlarini qo‘llash majburiyatida qoladi.

Zamonaviy qurollarga ega dushman bilan yuzma-yuz muhoraba uzoq cho‘zilmaydi, 1873-yilning may oyida xonlik poytaxti Xiva taslim bo‘ladi, 12-avgust kuni qal’a yaqinidagi Gandimyon qishlog‘ida xonlik va Rusiya imperiyasi o‘rtasida sulh shartnomasi imzolanadi. Tarixga “Gandimiyon shartnomasi” nomi bilan kirgan ushbu hujjatga asosan xonlik vassallikni bo‘yniga oladi.

“Gandimiyon shartnomasi” matnini xonning mirzaboshisi Pahlavon Niyoz Muhammad rus va o‘zbek tillarida yozgan. Fon Kaufman yonida kelgan harbiy maslahatchilar matnga bir qator xonlik uchun og‘riqli tuzatishlar kiritgan.

Hali yov bosib kelayotgan vaqtda saroydagi sulhparvar guruhga bosh bo‘lgan, kuchlar teng emasligi, ortiqcha kuchanish ko‘plab qurbonlar berilishi, qadim qal’adagi me’moriy obidalarga zarar yetishini anglagan Pahlavon Niyoz Muhammad kim edi?

Pahlavon Niyoz Muhammad 1825-yil Xivada mudarris Abdulla oxun oilasida tug‘ilgan. Dastlab saboqni mahalla masjidi qoshidagi maktabda, so‘ng o‘z davrining yetuk ulamolaridan biri bo‘lgan otasidan oladi. Otasi unga arab va fors tillarini puxta o‘rgatadi. Tabiatan iqtidorli, til o‘rganishga qiziquvchan Pahlavon Niyoz Xivada asirlikda yashayotgan askarlardan rus tilini ham o‘zlashtirib oladi. Madrasada tahsil olish jarayonida mumtoz adabiyotga qiziqadi, hazrat Alisher Navoiyni ustod sanab, o‘ziga Komil Xorazmiy taxallusini tanlab, g‘azal va muxammaslar yoza boshlaydi. Bir vaqtning o‘zida xattotlik va musiqa san’atini ham egallaydi.

Keng qamrovli bilimga ega 31 yoshli yigitni Xiva hukmdori Said Muhammad 1856-yili saroyga xattotlik vazifasiga taklif qiladi. Otasi o‘limidan so‘ng taxtga o‘tirgan Muhammad Rahimxon soniy Pahlavon Niyozni mirzaboshi qilib tayinlaydi. 1873-yilda Matmurod devonbegi fon Kaufman tomonidan Kaluga shahriga surgun qilingach, xon Pahlavon Niyozga devonbegi vazifasini beradi. Devonbegi saroyda bosh vazirdan keyin turuvchi eng yuqori mansab hisoblanib, xonlikning barcha iqtisodiy kirim-chiqimlari uning zimmasida edi. Ayni vaqtda, xonlikning barcha hujjatlari aynan devonbegi tomonidan yuritilgan.

Komil Xorazmiy dastlab an’anaviy ishq-muhabbat, may-mahbub mavzularida g‘azallar ijod qilgan bo‘lsa, keyinchalik uning she’rlarida ma’rifatparvarlik g‘oyalari asosiy o‘rin egallay boshlaydi. 1891-yil sentyabr oyida Peterburgga borayotib, Toshkentda to‘xtab o‘tganida, “Turkiston viloyatining gazeti” tahririyati iltimosi bilan “Toshkent” deb nomlangan qasida ham yozadi. Uning bu qasidasi o‘zbek adabiyotida yangi ijtimoiy taraqqiyotni aks ettirgan ilk yirik she’riy asardir.

Aynan ma’rifatparvarlik mavzusidagi asarlari Komil Xorazmiyni jadid harakatiga qo‘shilishga olib keladi. U Islomxo‘ja va boshqa vohalik jadidlar bilan yaqin aloqada bo‘lib, amaliy ishlarga kirishadi. Xivada ilk yangi ko‘rinishdagi maktab ham aynan Komil Xorazmiy tomonidan ochiladi va qisqa muddatda o‘quvchilar soni yuz nafardan oshadi.

Komil Xorazmiy Muhammad Rahimxon soniy bilan Peterburgga borib qaytgach, xonlikda matbaachilikni yangicha bosqichga ko‘tarishga kirishadi va Turkistonda ilk toshbosma Xivada tashkil qilinishi boshida turadi. Toshbosma usulida ilk bora Alisher Navoiy devoni va bir qator tarixiy asarlar chop qilinadi. 1881-yili Komil Xorazmiyning ilk devoni ham toshbosma usulida ko‘p nusxada chop qilingan. U shoir sifatida o‘z davrida g‘oyatda mashhur bo‘lgan. O‘n to‘qqizinchi asrning taniqli tilshunos olimlaridan biri Shayx Sulaymon Buxoriy ham uni XIX asrning peshqadam shoirlaridan biri sifatida tilga olgan.

Jadid Komil Xorazmiyning eng katta xizmati o‘zbek nota yozuvini ixtiro qilishidir. Ma’lumki, bizda mumtoz musiqalar, shu jumladan, “Shashmaqom” kabi yirik asarlar ham yodlash orqali o‘tib kelgan. Musiqaning og‘zaki tarzda avloddan avlodga o‘tib kelishini olqishlagan holda, ba’zida no‘noq musiqachilar tomonidan uning buzib ijro qilinishi holatlari kuzatilganini ham ta’kidlash kerak. Yevropa bu masalani allaqachon hal qilgan – musiqa notasi yaratilib, mumtoz asarlar asl holicha saqlanib qolishi kafolatlangandi.

Komil Xorazmiy Peterburgga borganida teatrga tushadi va sahna asari musiqasini ko‘p kishilik jamoa ijro qilayotgani, ularning oldida nota yozuvlari turganiga e’tibor qaratadi. Opera tugagach, orkestr musiqachilari yoniga borib, ular foydalanayotgan nota bilan qiziqadi. Safardan nota yozuvlarini olib qaytgach, ularni puxta o‘rganadi, o‘zicha Sharq mumtoz musiqalarini ushbu notaga solishga urinib ko‘radi. Ammo o‘sha vaqtda mumtoz musiqalarimiz asosan tanburda ijro qilingani uchun ular yevropacha nota chiziqlariga tushmasligini anglaydi va yangicha musiqa chiziqlari yaratish kerak, degan xulosaga keladi. U “Shashmaqom” turkumidagi “Rost” maqomini o‘zi yaratgan “Tanbur chiziqlari”ga to‘la o‘tkazadi va musiqachilar tezda buni o‘zlashtirib, mukammal ijro qila boshlaydilar.

Komil Xorazmiy yaratgan “Tanbur chiziqlari” o‘z kashfiyotchisi hayot vaqtida saroyda xizmat qilayotgan musiqachilar tomonidan ijro qilinishi yo‘lga qo‘yilgan. Ammo xonlik tugatilishi bilan “Tanbur chiziqlari” unutildi. Bunga sovetlarning aynan yevropacha nota chiziqlarini musiqa san’atiga to‘la tatbiq etishi ham sabab bo‘ldi. Faqat mustaqillik zamonasiga kelib, musiqa mutaxassislari Komil Xorazmiy yaratgan “Tanbur chiziqlari” tadqiqotiga kirishdilar. Ushbu tadqiqotda ishtirok etgan mutaxassislar e’tiroficha, “Tanbur chiziqlari” sharqona mumtoz musiqalarni mukammal ijro qilishda tengsizdir. Zero, “Shashmaqom” turkumiga kiruvchi maqom yo‘lidagi musiqalarni yevropacha notalarga joylashtirish va ijro qilishda bir qator kamchilik va qiyinchiliklar mavjud.

Komil Xorazmiy yoshi va tajribasi jihatdan Xiva jadidlarining eng ulug‘i edi. Shunga qaramasdan, u hatto keksayib qolganida ham, o‘z faolligi bilan fikrdoshlariga ibrat bo‘lgan. Jadidlarning vaqtli matbuotida, “Tarjumon”, “Turkiston viloyatining gazeti” kabi nashrlarda uning ma’rifiy maqolalari va she’rlari ketma-ket chop etib borilgan. Komil Xorazmiy o‘z lavozimidan foydalangan holda, iqtidorli yoshlarni moddiy va ma’naviy qo‘llagan, asarlari chop qilinishiga bosh-qosh bo‘lgan.

O‘tgan asr boshlarida jadidlar elni uyg‘otish uchun vaqtli nashrlar chop qilishga katta e’tibor qaratgan. Ammo Xiva xonligi hududida birorta vaqtli nashr chop qilinmagani sababi nima, degan savol tug‘iladi. To‘g‘ri, Islomxo‘ja bosh vazir vaqtida Xivada gazeta chop qilish harakati bo‘lgan. Bundan oldin Toshkent, Samarqand kabi shaharlarda turli gazetalar muntazam chop qilinayotganini ko‘rgan va ularda muntazam qatnashishga harakat qilgan Komil Xorazmiy ham gazeta tashkil qilish orzusida bo‘ladi. Lekin bu orzular amalga oshishiga xon atrofidagi xalq uyg‘onishini istamagan kuchli guruh qattiq qarshilik qilgan. Islomxo‘janing 39 yoshida qatl qilinishi ortida ham ana shu kuchlar turgani Komil Xorazmiy va boshqa jadidlarning qo‘lini bog‘lab qo‘ygani ayni haqiqat. Jadidlar harakati ta’siri ostida 1914-yilda tashkil qilingan “Yosh xivaliklar” partiyasi vaqtli matbuotga e’tibor qaratmaganini ham ushbu o‘zanlardan izlash kerak.



...48 yoshli Komil Xorazmiyning “sulhparvar siyosati” o‘sha vaqtda xonlikda turlicha talqin qilinadi. Ayrimlar u tutgan yo‘lni ma’qullasa, aksar kishilar uni “sotqin”likda ayblashadi. Xonlik bo‘yniga istibdod zanjirini solgan “Gandimiyon shartnomasi” matnini yozgani uchun unga la’nat toshlari otiladi. Asosan qilich-qalqon, cho‘qmor, piltali miltiq va ibtidoiy ko‘rinishdagi to‘plarga ega xonlik qo‘shini zamonaviy qurollarga ega yov qo‘shiniga qarshi tura olmasligi, oqibatda yurt vayron, qadim qal’alar chilparchin bo‘lishini anglagan Komil Xorazmiy vaqtdan yutish uchun vaqtincha sulhga rozi bo‘lishdan boshqa chora yo‘qligini anglagandir? Bu taklifi xato ekanini bilgan va vaqt kelib ushbu xatosini yuvish maqsadida jadidlar harakatiga qo‘shilgan bo‘lishi, hech shubhasiz. Zero, istibdoddan qutulishning birlamchi yo‘li raiyatni uyg‘otish, ularning ilmli bo‘lishlarini ta’minlashdir. Jadidlar aynan shu yo‘lni tanlagan edilar.

Vaqt hammasini oydinlashtirdi. Komil Xorazmiy yetuk shoir, musiqachi, xattot sifatida tariximizdan munosib o‘rin oldi. Uning xalqimiz oldidagi eng katta xizmati jadidlar harakatiga qo‘shilgani, xonlikda ilk yangicha maktablar tashkil qilgani, o‘z ortidan minglab ongli yoshlarni ergashtira olganida ko‘rinadi.

Ro‘zimboy HASAN

MUMTOZ MUHABBAT MAMLAKATI



Boshlanishi 1-sahifada.

Hind zaminida ko‘nglimizga iftixor nurini to‘kkan manzil – Bobur boboning bosh farzandi Humoyun Mirzo abadiy qo‘nim topgan Dehli shahriga qadam qo‘ydik.

DEHLI DILDA QOLDI

Samolyotimiz 30-yanvar kuni tonggi soat 6 da Dehli xalqaro aeroportiga qo‘ndi. Bizni ushbu maskanda O‘zbekiston vakili bo‘lib xizmat qilayotgan ikki hamyurtimiz – Murodjon hamda elchixona bosh kotibi Abdulaziz o‘zbekona mehr-u oqibat bilan kutib olishdi. Abdulaziz boshqaruvidagi mashinada mehmonxonaga yo‘l oldik. Biroz hordiq chiqargan bo‘lib, so‘ng oqibatli va ma’rifatli qadrdonim Asqar hoji Boybo‘sinov va umr yo‘ldoshlarimiz hamrohligida Dehli shahri bilan yaqindan tanishish uchun sayohatni boshladik.

Dastlabki ko‘rganimiz mahobatli “Hindiston darvozasi” bo‘ldi. U to‘rt tarafidan ham bir xil ko‘rinishga ega. Poyiga, yon-veriga ekilgan anvoyi gullarni ko‘rib ko‘zingiz qamashadi. Qish faslida dimog‘imiz ko‘klam havosiga to‘yingandek zavq-u shavqqa to‘ldik. Hindistonda ichki turizmning a’lo darajada yo‘lga qo‘yilgani havasimni keltirdi. “Hindiston darvozasi” tegrasida yuzlab yoshlar sayilga chiqqan bo‘lib, agar qiyoslasak, chet elliklar 20 foizni tashkil etsa, qolgan 80 foizi mahalliy aholi vakillari edi.

Ko‘rkam va ulug‘vor darvoza ro‘parasida Vatan ozodligi yo‘lida jonini fido qilgan yurt o‘g‘lonlari sharaflanib, salobatli yodgorlik o‘rnatilgan. Shu sahn bo‘ylab qurilgan inshootlar, inson zakosi bilan yaratilgan go‘zalliklarni tomosha qilib, bugungi Hindistonning urib turgan yuragi aynan shu joy ekan, degan o‘yga bordim. Chunki darvoza atrofidagi betakror manzaralardan sal o‘tib, biroz nariga ko‘z tashlasangiz, markaziy hukumat qarorgohlarini, o‘nlab ma’muriy idoralarning muhtasham binolarini, kinoteatrlar, san’at saroylari, moziygohlar, oliy o‘quv muassasalari, Maxatma Gandi, Javoharla’l Neru nomidagi muzeylar, maftunkor bog‘-rog‘lar, keng va tekis ko‘chalar – boringki, Hindiston davlatchiligi qudratiga timsol bo‘la oladigan eng e’tiborli bunyodkorlik namunalarini ko‘rasiz.

Albatta, uch ming yillik tarixga ega olamga mashhur Dehliga bizning nigohimiz ilk bor tushayotgani uchun hayajonimiz baland edi. Qishning avji chillasida turfa daraxtlar bir dona ham bargini to‘kmagan, atrof yam-yashil, havo harorati ham iliqqina. Ko‘hna va ayni paytda zamonaviy qiyofa kasb etgan o‘tmish va bugunning ajoyib sintezi bo‘lgan Dehli bizni maftun etdi. Bu shahar yangi asrimiz me’morchiligi yutuqlari asosidagi bunyodkorlik bobida qanchalik ilgarilab ketgan bo‘lmasin, baribir, o‘z tarixiy ulug‘vorligini ham saqlab qolganiga amin bo‘ldik.

BOBURIYLARNING BOQIY TARIXI

Dunyoda buyuk Sohibqiron bobomiz va temuriyzodalar qurdirgan ulug‘vor inshootlar, yaratgan bog‘-rog‘lar, ta’lim va shifo, ma’naviyat va ma’rifat maskanlari asrlar osha jahon ahlining dilida havas chirog‘ini yoqib kelayotgani, shubhasiz. Mayli, takror bo‘lsa ham aytay: oltin konidan oltin chiqadi, oqqan daryo yana oqaveradi.

Hayotning yana bir haqiqati shuki, har qanday ota ham o‘z farzandiga jonini baxshida qilavermaydi. Agar u ulkan saltanatning sohibi, mashhur shoir va izzat-e’tiborda betimsol, buning ustiga, yosh bo‘lsa, yanada murakkab holatdir. Ammo Bobur jonidan aziz ko‘rgan dilbandi Humoyunning o‘lim bilan olishayotganini ko‘rarkan, dosh berolmaydi va uning boshi uzra yetti marotaba aylanib, Yaratganga nido qiladi. Kimningdir jonini olish kerak bo‘lsa, bolasini emas, o‘zini qurbon etishini so‘raydi. Inson qalbini larzaga soladigan bu dilgir lavha, mana, besh yuz yildirki, turkiylar ongida jasoratning oliy namunasi bo‘lib porlab turadi. Shu bois ham, Bobur Mirzo asos solgan imperiya, o‘zga yurtda bo‘lishiga qaramay, 330-yildan ko‘proq vaqt yashagan.

1530-yilda 47 yoshida olamdan o‘tgan Bobur Mirzodan Humoyunga Hindiston saltanati meros bo‘lib qoldi. Hurmatli o‘quvchilarimiz uchun Humoyun Mirzoning jangi jadallarda o‘tgan yillari, hukmronlik faoliyati ma’lum ekanini hisobga olib, uning tafsilotlarini bayon etishdan tiyildik. Faqat ba’zi jihatlarni ta’kidlashni joiz bildik.

Humoyun hukumat boshqarish tizimini ham o‘ziga xos badiiy-falsafiy usulda tashkil etgan. Masalan, u ruboiy yoki tuyuqqa qiyosan, to‘rt bo‘limdan iborat hukumat tuzgan: harbiy ishlarni nazorat qiluvchi “Olov boshqarmasi”; sug‘orish ishlari bilan shug‘ullanadigan “Suv boshqarmasi”; soliq solish va davlat yerlarini boshqarish bilan shug‘ullanuvchi “Yer boshqarmasi” hamda musulmon imomlari, saroy shoirlari va tarixchilar masalalari bo‘yicha “Havo boshqarmasi”. Ushbu ma’lumotlar bilan tanishar ekanman, beixtiyor yodimga hazrat Navoiyning quyidagi satrlari keldi:

To‘rt unsur, yetti ko‘k, olti jihot,
Nodir-u oliy asosi koinot.
Barchadin ashrafki ul inson erur
Kim, kamolida xirad hayron erur!

Biz Humoyun Mirzo uchun farzandi Akbarshoh tomonidan barpo etilgan maqbara ansamblini ko‘rib, hazrat Navoiy vasf etgan o‘sha hayronlig‘ ostonasida turib qoldik. Sayyohlar va minglab hindistonliklar yuz-u ko‘zida ham shunday ifoda mujassam. Aytishlaricha, Humoyun Mirzoning maqbarasi keyinchalik Toj Mahalning bunyod bo‘lishi uchun me’moriy asos va va ilhom manbayi bo‘lib xizmat qilgan ekan.

Humoyun Mirzo muzeyidagi noyob eksponatlarni tomosha qilarkanmiz, taassurotlarimiz yanada boyidi. Muzey yer ostiga qurilgan bo‘lsada, boburiyzodalardan meros qolgan osori-atiqalar yer ustida yurgan odamlarning ko‘nglini rom etadi.

TOJ MAHAL – MUHABBAT QASRI

Safarimizning ikkinchi kuni – 31-yanvar, erta tongda mehmonxona darvozasida bizni Agra shahriga olib borish uchun Shashvat ismli hind sayrboni kutib turardi. E’tiborlisi, bu bola ishlaydigan sayyohlik kompaniyasini turklar ochgan ekan. Xullas, Dehli shahridan Agra tomon yo‘lga chiqdik. Oraliq masofa 250 kilometrdan ko‘p. Darvoqe, Hindistonga kelgan turistlar eng avvalo “uch oltin burchak” deb ataluvchi manzillar: Dehli – Agra – Jaypur shaharlarini ziyorat qilarkan. Chunki bu yo‘nalish orqali Hindistonning olis tarixi, kechagi kunlari va bugungi manzaralarini ko‘rishingiz mumkin. Qolaversa, bu muazzam shaharlarda aynan boburiylar sulolasining zarhal izlari, tilloga teng yodgorliklari bamisoli dengiz tubidagi marvaridlardek yastanib yotadi.

Agraga olib boruvchi katta yo‘ldamiz. To‘rt qator yo‘lda mashinalar ravon yelib boradi. Bunaqasini Yevropaga qilgan sayohatlarimda ko‘rib, qoyil qolgandim. Biroq Hindistonda yevrostandartdagi shunday yo‘llar borligini tasavvurimga ham keltirolmasdim... Bu ilonizi yo‘lning ikki cheti ko‘m-ko‘k ekinzor, katta-kichik daraxtlar, gohida bir necha kilometrlar bo‘ylab ekilgan xushmanzara gulchechaklar, bir so‘z bilan aytganda, ko‘rib ko‘z quvnaydi.

Albatta, Hindistonga kelsangiz-u, faqat maqtasangiz ham bo‘lmaydi. Chunki u yerga borganlar yaxshi biladigan, asabi baquvvat va bag‘rikeng odamni ham hayron qoldiradigan holatlar borki, tilga olib o‘tmasak, safarimiz yolg‘onga o‘xshab qoladi. Dehli, Agra va Jaypurda ham ko‘chaning “ega”si sigirlarmikin, degan xayolga bordik. Xalqona gap ila aytsak, Hindistonda hech kim sigirlarning “mushugini pisht” demas ekan. Chunki hinduizm diniga ko‘ra, sigir muqaddas, ilohiy jonzot hisoblanadi.

Atrof-muhit ekologiyasi, tozalik bilan bog‘liq muammolar ham kam emas. Ulkan-ulkan zamonaviy binolar qarshisida yoki yonida chiqindizorlar bor. Shahar arxitekturasiga soya solishiga qaramay, kim nima xohlasa, shuni qurib olgan – hech kimning ishi yo‘qdek... Bu bizga go‘yo guldek shaharlar yuziga chiqqan so‘galdek ko‘rindi... Negativlarni shu joyda muxtasar qilib, andisha ila “Har to‘kisda bir ayb”, deb qo‘ya qolamiz.

Chor tarafga termilib, 250 chaqirimni bosib o‘tganimiz-u, o‘sha mashhur Agraga ham yetib kelganimizni bilmay qolibmiz. Agra shahri – tom ma’noda boburiylar saltanatining markazi, yuragi. Biz ana shu mumtoz, tarixiy shaharga yetib keldik. Muhabbat mehrobi ko‘ngil ko‘shkida, desak, albatta bu shoirona tashbeh bo‘ladi. Muhabbat merosini esa ko‘ngil qasri xazinasidan izlasak, qanday bo‘larkin? Bu fikrda muhabbatning nuri bordek tuyuladi menga. Axir, Toj Mahal deganda, avvalo, asl ismi Shahobiddin Muhammad Xurram bo‘lgan Shoh Jahonning qalb ko‘zgusida qad rostlagan qasr ko‘z oldimizga kelmaydimi?!

Bu “Saroylar toji” tomon qadam qo‘ygan odam borki, ranglar raftoridan sehrlanadi. Hayrat havasidan ko‘ksi to‘liqadi. Inson aql-u zakovatining betimsol qudratiga qiyos bo‘lib bunyod etilgan mazkur muhabbat qasri 374 yildan buyon salobat va viqor bilan turibdi. Sadoqat ham samodan tushmaydi, albatta. Ayniqsa, muhabbat ahli uchun vafo – yurak yuzidagi gul. Yurak yuzidagi shu gulni uzmoq uchun tom ma’noda muhabbatning sultoni bo‘lmoq kerak. Shoh Jahon ana shunday dilbar shaxs edi. Sevikli rafiqasi Mumtoz Mahal uning uchun Yaratgan bu olamda ato etgan ne’matlarning eng a’losi, eng aziz va mukarrami ekan-da.

Dunyoning o‘nlab mamlakatlaridan taklif etilgan yuzlab qo‘li gul usta, hunarmand, 20 mingga yaqin odamning 22 yil ishlashi, 74 metr balandlikdagi besh gumbazli, burchaklarida to‘rtta minora, inshootga tutash hududdagi nafis favvoralar, hovuzlar, yam-yashil bog‘-u bog‘chalar, rango-rang gulzorlar – umumiy maydoni 17 gektarga teng bu majmuaning har qarichi yaxlit ulkan mo‘jizaning uzviy qismidek ko‘rinadi.

Bizga hamrohlik qilayotgan sayrbonimizning aytishicha, Toj Mahalni ko‘rish istagida odatiy kunlarda 25 ming, shanba va yakshanbada esa 40 ming atrofida sayyoh kelar ekan. Zero, sayyoramizda diqqatga sazovor go‘shalar kam emas, biroq Toj Mahal yagona, bunaqasi boshqa joyda yo‘q!

Minglab fillarda o‘nlab yurtlardan keltirilgan qurilish materiallari, Makrana shahridan olib kelingan shaffof marmarning o‘ziga xos xususiyati shundaki, u bulutsiz kunlari oq, tong pallasida pushti va oy yorug‘ida kumush rangda ko‘rinadi, tovlanib-tuslanadi...

Keling, Toj Mahalni ipidan ignasigacha sharhlab, qimmatli vaqtingizni olmay. Inchunin, internet manbalarida millionlab ma’lumotlar borki, bu borada mening yordamimga ehtiyoj sezmaysiz...

Hindistonga borib, ularning shoulari, tomoshalarini ko‘rmaslik – Hindistonga bormaslik bilan barobar. Sayrbonimiz bizni “Mohabbat The Taj” teatriga, imperator Shoh Jahon va uning rafiqasi Mumtoz Mahalbegimning otashin ishqidan hikoya qiluvchi jonli spektaklni ko‘rishga taklif etdi. 80 nafar mahoratli aktyor ishtirokidagi sahna namoyishi bizni olis tarix sari boshlab ketdi. Hindlar faqat kinoda emas, teatrda ham yetakchilardan biri ekanini angladik. Spektakldan mutaassir bo‘lganimizdan hatto yakunda shoh va malika rollarini qoyilmaqom qilib ijro etgan bosh qahramonlar bilan sahnada suratga ham tushib oldik.

So‘ng Mumtoz Mahal va Shoh Jahon mangu qo‘nim topgan qabrlarni ziyorat etib, Qur’on tilovat qildik. Bu go‘shadan ko‘ksimizni tog‘dek ko‘tarib chiqdik. Muhabbat qasrining poyida turib, boburiylar saltanatining salobatidan hayratga tushdik, uning mahobati qoshida boshimizni egdik. Hindistonning katta-kichik ahli, o‘nlab chet mamlakatlardan kelgan ming-minglab sayyohlarning chehrasida, so‘zidagi hayajon va e’tirof zohir.



Suratda: *(chapdan) O‘zbekistonning Hindistondagi favqulodda va muxtor elchisi Sardor Rustamboyev, Mahmud Toir, elchixona mas’ul xodimi Sadriddin Suyarov hamda tadbirkor Asqar Boybo‘sinov..*

TENGLIKDA YANGI TARAQQIYOT SARI

Safar davomida O‘zbekistonning Hindistondagi favqulodda va muxtor elchisi Sardor Rustamboyev bilan suhbatlashish imkoniyatiga ega bo‘lganimiz sayohatimiz mazmun-mohiyatini yanada nurlantirdi, desam, haqiqatni aytgan bo‘laman. Avvaliga elchixonamiz binosi va uning hududidagi ulug‘vor go‘zallik, o‘zbekona fayz-u tarovat, elchixona xodimlariga yaratilgan shart-sharoitlar bizni mamnun etdi. Hindistonga kelishidan oldin Fransiyada besh yildan ziyod elchi bo‘lib ishlagan Sardor Mirzayusupovich bilan qisqa, ammo mazmunli muloqot qildik, deb o‘ylayman.

Bugun Hindiston–O‘zbekiston munosabatlari qayta tiklanish davrini boshdan kechirmoqda. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Hindiston Bosh vaziri Narendra Modi o‘rtasidagi muntazam oliy darajadagi muloqotlar hamda erishilgan yuksak natijalar tufayli aloqalarimiz yangi strategik bosqichga ko‘tarildi. E’tiborlisi, kishi boshiga o‘rtacha ichki mahsulot miqdori O‘zbekistonga nisbatan kam bo‘lsa-da, iqtisodiyotning umumiy miqdori bo‘yicha Hindiston 2025-yili dunyoda to‘rtinchi o‘rinni egallagan. Shu sababli, o‘zaro hamkorlik uchun ulkan salohiyat mavjud.

– O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan qo‘yilgan ikki tomonlama tovar ayirboshlash hajmini 1 milliard dollarga yetkazish bo‘yicha vazifa o‘tgan yili ortig‘i bilan bajarildi, – dedi suhbat chog‘i hurmatli elchimiz. – 2025-yil yakunlari bo‘yicha ushbu ko‘rsatkich 1 milliard 306 million dollardan oshib, yillik o‘sish 37 foizni tashkil qildi. Savdo-sotiq hajmini yaqin kelajakda 2 milliard dollarga yetkazish uchun barcha imkoniyatlar mavjud. Hindistonga eksport hajmini oshirish dolzarb yo‘nalish hisoblanadi. O‘tgan yili eksport hajmi 56 foizga o‘sdi va 153 million dollardan oshdi.

Ma’lumki, Hindiston bilan tovarlar harakatiga logistika yo‘nalishlaridagi mavjud muammolar salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Ushbu vaziyatdan kelib chiqib, mamlakatlarimiz o‘rtasida tovarlar harakati uchun “havo ko‘prigi” yaratish masalasi ustida izchil sa’y-harakatlar olib borilmoqda. Toshkent-Amritsar va Toshkent-Dehli yo‘nalishlarida yuk tashishga Hindiston rasmiy idoralari tomonidan ruxsat olindi. Shuningdek, eksport hajmini oshirish maqsadida O‘zbekiston mahsulotlari uchun turli tarif va notarif barerlarni olib tashlash bo‘yicha ham tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Shu paytgacha 40 ta mahsulotga fitosanitariya ruxsati olingan. Joriy yil yana 10 ga yaqin mahsulot uchun ham ruxsatnoma rasmiylashtirishga erishiladi.

Dehli shahrida birinchi “O‘zbekiston” savdo uyi ochilishiga tayyorgarlik ko‘rilmoqda. Ushbu tashkilot Hindiston rasmiy idoralarida ro‘yxatdan o‘tkazildi va tez kunda o‘z faoliyatini boshlaydi. 2025-yil 1-sentyabr holatiga ko‘ra, O‘zbekistonda hind kapitali ishtirokida faoliyat yuritayotgan korxonalar soni 341 taga yetdi (shundan 253 tasi xorijiy, 88 tasi qo‘shma korxona). O‘tgan yili Hindiston kapitali ishtirokida 45 ta yangi korxona ta’sis etilgan.

– Bugun mamlakatimizda, – deya davom etadi elchi, – Hindiston bilan hamkorlikda 877 million dollarga teng 20 ta loyiha amalga oshirilmoqda, 303,2 million dollarlik investitsiya o‘zlashtirildi. Investitsiyalar axborot texnologiyalari, farmatsevtika, to‘qimachilik, charm-poyabzal, tibbiyot, ta’lim va boshqa sohalarga yo‘naltirilmoqda. So‘nggi yillarda Hindistondan O‘zbekistonga sayohatchilar oqimini ko‘paytirishga erishilmoqda. 2025-yilda ushbu mamlakatdan 80 mingga yaqin turist kelib, yillik o‘sish 15 foizni tashkil qildi. Joriy yil 100 ming nafarlik marrani zabt etish rejalashtirilgan.

O‘tgan ikki yilda mamlakatlarimiz o‘rtasidagi havo qatnovi sonini uch baravarga oshirishga erishildi. Bugun haftasiga 17 ta samolyot Toshkent, Dehli, Mumbay shaharlari va Goa shtatini bog‘lab turibdi. “Uzbekistan Airways” aviakompaniyasi yoniga “Centrum Air” aviakompaniyasi qo‘shildi, yaqinda “Qanot Sharq” kompaniyasi ham ruxsat olishi kutilmoqda...

Ta’lim sohasidagi xalqaro hamkorlikni rivojlantirish uchun yaratib berilgan qulay imkoniyatlar natijasida ushbu yo‘nalishdagi aloqalar yangi pog‘onaga ko‘tarilmoqda. Bugun 15 mingdan ortiq hindistonlik yoshlar mamlakatimiz universitet va institutlarida ta’lim olmoqda. Ushbu qiziqish yildan yilga kuchayib boryapti. Shu sababli, Andijonda hind talabalari uchun maxsus majmua yaratilmoqda. Hisob-kitoblarga qaraganda, O‘zbekistonda o‘qiyotgan bir nafar talaba yiliga o‘rtacha 10 ming dollar atrofida mablag‘ sarflaydi. Bu esa faqat ta’lim sohasida o‘tgan yili Hindistondan taxminan 160 million dollar investitsiya jalb qilindi, deyishga asos bo‘ladi.

Shuningdek, yoshlari nihoyatda iqtidorli. Xususan, bugunning eng zamonaviy sohasi sifatida e’tirof etilayotgan axborot texnologiyalari bobida ularga teng keladigani kam. Bunga hozir Hindistonda 5 milliondan ortiq dasturchi borligi, ikki texnogigant – Google va Microsoft kompaniyalari bu yurtga e’tiborini kuchaytirishni boshlagani, hind mutaxassislarini o‘ziniki qilib olishga jiddiy intilayotgani va eng asosiysi, ana shu ikki raqobatchi kompaniya rahbarlari aslida hindistonliklar – Satya Nadella (Microsoft raisi va bosh direktori) hamda Sundar Pichai (Google bosh direktori) ekani yaqqol misoldir...

Bugun O‘zbekistonda Hindistonning to‘rtta universiteti – Toshkentda Amiti universiteti, Andijonda Sharda universiteti, Jizzaxda Sambram institutlar guruhi va Buxoroda Acharya institutlar guruhi o‘z kampusini ochgan. Joriy yil Era universitetining Nukus shahrida va Sharda universitetining Toshkent viloyatida filiallari faoliyatini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha tashkiliy jarayonni nihoyasiga yetkazish ko‘zlangan.

Hurmatli Prezidentimizning oqil va dono siyosati tufayli dunyo O‘zbekistonga, O‘zbekiston dunyoga ochilyapti. O‘zbekistonimizning porloq istiqboliga ishonch ortmoqda va biz kelajakni Hindiston bilan yaqin strategik sheriklikda ham ko‘ryapmiz. Buning uchun barcha zarur omillar, kuchli siyosiy iroda, mustahkam tarixiy poydevor, o‘sib borayotgan iqtisodiy aloqalar bor va eng muhimi, ikki xalq o‘rtasida samimiy mehr va xayrixohlik mavjud.

XAYR, DEHLI, XUSH QOL, TOJ MAHAL!

Akbarshoh majmuasini ziyorat qilgach, Agradan chiqib, uchinchi manzil – ko‘hna Jaypur shahriga ham bordik, u yerni obdon aylanib, yana Dehliga qaytib keldik. Dehlida bizni elchixona mas’ul xodimi Sadriddin Suyarov kutib oldi. U hali vaqtimiz bemalol bo‘lgani sababli, Dehlining qolib ketgan diqqatga sazovor boshqa joylariga olib borib, bizni yaqindan tanishtirdi. Keng tarmoqli savdo majmualarini ko‘rdik. Sadriddinga dilimdagi savolni berdim:

– Hindistonliklarning qaysi jihatiga havas qilsak arziydi?

– Hindlar kimningdir yuz-ko‘zicha emas, tom ma’noda vatanparvar, – dedi Sadriddin samimiylik bilan. – Boriga shukur, yo‘g‘iga sabr qiladigan qanoatli odamlar. Vatanning sha’ni, millatining qadri uchun ko‘ksini qalqon qilishga tayyor. Bu yerda xo‘mrayib yurganlarni qariyb uchratmaysiz. Eng hayratlanarlisi, ko‘chada tug‘ilib, bir umr ko‘chada yashab o‘tadiganlari ham taqdiridan nolimaydi. Turli e’tiqodda bo‘lishidan qat’i nazar, ular qayta tug‘ilishiga ishonadi. “Agar men hozir sabrli bo‘lsam, qayta tug‘ilganimda eng badavlat, eng boy inson bo‘laman”, degan hayot falsafasi va ishonch bilan yashaydi ular.

Ha, bu o‘lka – bir yarim milliarddan ortiq inson uchun ona Hindiston!

Darvoqe, bu yurtda hind va ingliz tillari asosiy, davlat tili hisoblanarkan. Mamlakat viloyatlarida yashaydigan aholi ichida qaysi tilda so‘zlashuvchilar ko‘pchilikni tashkil qilsa va u hindiy yoki ingliz tili bo‘lmasa, o‘sha til uchinchi davlat tili bo‘larkan. Dinlar esa juda ko‘p, har kimning o‘z e’tiqodi bor. Shunga qaramay, barcha ahil-inoq, bir-biriga gina qilmay, tinch-totuv yashab kelmoqda.

Biz ona Vatanimiz sari yo‘lga chiqarkanmiz, hind xalqining metin sabr-u qanoatiga, mehnatkashligiga, odamlarining kulib yurishi, tinchligi va boy tabiatiga ko‘z tegmasin, dedik. Do‘stligimiz abadiy bo‘lsin, barcha sohalarda aloqalarimiz taraqqiy topaversin, deb niyat qildik.

Mahmud TOIR,
O‘zbekiston xalq shoiri

Toshkent–Dehli–Agra–Jaypur–Toshkent

OLAM OLIMI



Pol MILGROM

Auksionni aql bilan boshqarishni o‘rgatgan nobelchi

Zamonaviy dunyoda iqtisodiyot faqat raqamlar va grafiklar yig‘indisi emas. U qarorlarga ta’sir qilish, manfaatlar to‘qnashuvini bartaraf etish va cheklangan resurslarni adolatli taqsimlashda muhim rol o‘ynovchi san’atdir. Shu murakkab jarayonlarni chuqur anglab, ularga ilmiy asoslangan yechim taklif qilgan, nazariyani amaliyotda real foydaga aylantira olgan noyob olimlardan biri Pol Robert Milgrom hisoblanadi.

BIOGRAFIYA

Pol Milgrom 1948-yil 20-aprelda AQSHning Detroyt shahrida tug‘ilgan. Og‘ir sharoitda o‘sganiga qaramay, bolalikdan bilimga intilgan, mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirgan. 1970-yilda Michigan universitetida matematika bo‘yicha bakalavr darajasini a’lo natijalar bilan qo‘lga kiritdi. Aniq fanlarga bo‘lgan qiziqishi uni iqtisodiyotning nazariy asoslariga olib keldi. Keyinchalik Stenford universitetida statistika bo‘yicha magistr, 31 yoshida esa biznes va iqtisodiyot sohasida doktorlik (PhD) darajasiga erishdi. Ilmiy rahbari mashhur iqtisodchi Robert Uilson edi.

YO‘L

Olimning asosiy ilmiy merosi – auksionlar nazariyasi va bozor dizayni. U iqtisodiyotda keng tarqalgan quyidagi muammolarga yechim izladi: axborot nomutanosibligi, ishtirokchilar manfaatlarining to‘qnashuvi, cheklangan resurslarni samarali taqsimlash.

Milgrom auksionlarni eng yuqori narx taklif qilgan g‘alaba qozonadigan jarayongina emas, balki jamiyat uchun maksimal foyda keltiradigan mexanizm sifatida talqin qildi. U ishlab chiqqan nazariyalar asosida radio chastotalar taqsimoti, elektr energiyasi bozorlari, davlat xaridlari, onlayn savdo platformalari samarali tarzda qayta tashkil etildi.

MANZIL

2020-yilda Pol Milgrom ustozi Robert Uilson bilan birga “auksionlar nazariyasini takomillashtirgani va yangi auksion formatlarini ishlab chiqqani uchun” iqtisodiyot bo‘yicha Nobel mukofotiga sazovor bo‘ldi.

Bu e’tirof nazariy iqtisodiyotning amaliy bozor islohotlarida nechog‘li ahamiyat kasb etishini ko‘rsatib berdi. Ustoz-shogirdning ishlari iqtisodiy siyosat, davlat boshqaruvi va xususiy sektor qarorlariga bevosita ta’sir ko‘rsatdi.

KO‘PRIK

Pol Milgrom iqtisodiyotni hayotdan uzilgan fan emas, balki inson farovonligiga xizmat qiladigan vosita deb hisoblaydi. U raqobatni oshirish, shaffoflikni ta’minlash, korrupsiya xavfini kamaytirish kabi muhim ijtimoiy masalalarga yechim taklif qiladi.

U fundamental nazariyani amaliyot bilan bog‘lay olimlar toifasiga kiradiolgan. Ya’ni, ilm-fan va jamiyat o‘rtasiga ko‘prik solgan bunyodkorlardir.

XULOSA

Pol Milgrom zamonaviy iqtisodiyot fanini yangi bosqichga ko‘targan, bozorlarni ilmiy asosda tashkil etish mumkinligini isbotlagan yirik olimdir. Uning auksionlar va bozor dizayni sohasidagi kashfiyotlari jahon iqtisodiy tizimlarining yanada adolatli va samarali bo‘lishiga xizmat qildi.

Zarnigor IBROHIMOVA tayyorladi.

SIYMO

Qahramon OLIMA



Yuzaki qaraganda, biror-bir olim hayot yo‘li haqida yozishning hech mushkul yeri yo‘qdek. Deylik, taniqli navoiyshunos Suyima G‘aniyeva (1932–2018) haqida ham...

1932-yilning 20-fevrali kuni Toshkent shahrida xizmatchi oilasida tug‘ilgan. 20 yoshida O‘rta Osiyo davlat universitetining Sharqshunoslik fakultetini fors tili mutaxassisligi bo‘yicha bitirib, Leningrad davlat universiteti aspiranturasiga kirgan. 24 yoshida Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” tazkirasi bir qismining ilmiy-tanqidiy matnini tayyorlash yuzasidan filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya yoqlagan.

Agar navoiyshunoslikning mukammal bibliografiyasi tuziladigan bo‘lsa, bu adabiyotshunos amalga oshirgan ishlar ro‘yxati kitobning ko‘p sahifasini egallashi aniq. Chunki Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi va Toshkent davlat sharqshunoslik instituti chiqargan “Suyima G‘aniyeva” risolasida 600 ga yaqin ish haqida ma’lumot berilgan. Ular orasida 14 monografiya, 20 o‘quv-uslubiy qo‘llanma, 350 ilmiy-nazariy maqola bor. Shu ishlari uchun unga 2012-yilda professor ilmiy unvoni ham berilgan. Bularning bari zahmatli mehnat mahsuli. Samarali mehnat esa opaning umri mazmuniga aylangan edi.

Mehnatlari davlat tarafidan ham yuksak qadrlangan. O‘zbekiston Respublikasi davlat mukofoti, “El-yurt hurmati” (1999), “Buyuk xizmatlari uchun” (2008) ordenlari sohibi, O‘zbekiston Qahramoni (2015).

Lekin shu ma’lumotlarni qayd etish bilangina ish bita qolmaydi-da.

Olimaga “Buyuk xizmatlari uchun” ordenini davlat rahbarining o‘zi topshirdi. Opa ko‘p qatori so‘zga chiqdi. Albatta, shunga loyiq ko‘rgani uchun Prezidentga minnatdorlik bildirdi. Lekin shunday bama’ni, olimona, kamtarona nutq so‘zladiki, davlat rahbari ham, zaldagilar ham olqishladi.

1976-yili O‘zbekiston Fanlar akademiyasi huzuridagi hozirgi O‘zbek tili, adabiyoti va folklori institutining mumtoz o‘zbek adabiyoti tarixini o‘rganadigan bo‘limga ishga borganman. Ikkinchi yo uchinchi ish kunim. Qo‘ng‘iroq bo‘ldi. Oldim. Bo‘limimiz mudiri Abduqodir Hayitmetov domla ekan. “Suyimaxon opangiz keldilarmi?” deb so‘radi. “Aynan kim ekanliklarini aniq bilolmadim-u, lekin to‘rdagi stollardan biridagi opamiz kelganlar”, dedim. “Ana o‘sha kishi Suyima opangiz bo‘ladilar”, dedi domla ziyolilarcha muloyim kulib...

Men institutda bir keksa olimani ko‘rib, shu opa Suyima G‘aniyeva bo‘lsa kerak, deb o‘ylagan edim. Chunki diplom ishi yozish jarayonida Alisher Navoiy “Asarlar”ining 15 jildligini yig‘ib, bir-bir ko‘rib chiqishga to‘g‘ri kelgan. Shu to‘plamning “Majolis un-nafois”dan iborat 12-jildini nashrga tayyorlagan, “Farhod va Shirin” o‘rin olgan 7-, “Mahbub ul-qulub”, “Munshaot”, “Vaqfiya” kiritilgan 13-, “Xamsat ul-mutahayyirin”, “Holoti Sayyid Hasan Ardasher”, “Holoti Pahlavon Muhammad”, “Muhokamat ul-lug‘atayn”, “Mezon ul-avzon”, “Tarixi muluki Ajam” asarlari kiritilgan 14-jildga muharrir bo‘lgan Suyima G‘aniyevani eski davr ta’limini olgan keksa olima deb o‘ylagan ekanmanda. Holbuki, kamina ko‘rgan keksa opa folklorshunos va shoira Muzayyana Alaviya ekan.

Bu borada adashgan bir kamina emas. O‘tgan asrning 60-yillarida olima Turkiyaga borganida, mashhur turk eronshunosi, professor Ahmad Otash opaning o‘zidan: “Suyima G‘aniyeva hali hayotmilar?” deb so‘ragan ekan.

Olima katta ilm maktabini o‘tagan. Jahonning ko‘p mamlakatlarida yozgan ilmiy ishlari, u nashrga tayyorlagan asarlar, ilmiy anjumanlardagi chiqishlari orqali o‘zbek fani yutuqlarini namoyon etdi. U matnshunoslikdan tashqari, Navoiyning nasriy asarlarini keng tahlil etgan tadqiqotchilardan. Besh jildlik “O‘zbek adabiyoti tarixi”ning XV asr ikkinchi yarmi adabiyotini o‘rganishga bag‘ishlangan ikkinchi jildidagi “Muhokamat ul-lug‘atayn” (A.Rustamov bilan birgalikda), “Lison ut-tayr”, “Navoiyning prozaik va ilmiy asarlari”, “Mahbub ul-qulub”, “Majolis un-nafois”, “Xamsat ul-mutahayyirin”, “Holoti Sayyid Hasan Ardasher”, “Holoti Pahlavon Muhammad”, “Vaqfiya”, “Munshaot”, “Nazm ul-javohir”, “Husayn Boyqaro” (“Kirish”da) qismlarini aynan shu tadqiqotchi yozgan.

Olima ilmiy-ijodiy faoliyatining uchinchi yo‘nalishi – tarjimonlik. U qadim hind asari “Kalila va Dimna”ni tojikchadan o‘zbek tiliga o‘girgan. 1968-yili Alisher Navoiy tavalludining 525 yilligi sharofati bilan Toshkentda shoirning 10 jildli “Asarlar”i rus tilida chiqdi. 9-jildga kiritilgan “Majolis un-nafois”, “Holoti Sayyid Hasan Ardasher”, “Holoti Pahlavon Muhammad” asarlarini rus tiliga Suyima G‘aniyeva tarjima qilgan. Ma’lumki, bu uchala nasr yo‘lida bitilgan asarda ko‘plab she’riy parchalar keltirilgan. Tarjimon ular mazmunini ham rus tilida nasriy yo‘l bilan bayon qilgan.

Muallimlik olimaning yana bir sevimli faoliyati hisoblanadi. Garchi ko‘p yillar Fanlar akademiyasi institutida ishlab kelgan bo‘lsa-da, u oliy maktabdan aslo ajralgani yo‘q edi. Toshkent davlat konservatoriyasida, hozirgi Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida o‘zbek adabiyoti, matnshunoslik, manbashunoslik, sahna nutqi, aruz nazariyasi fanlaridan dars berdi.

Istiqlol yillarida opa yanada faol mehnat qildi. Har bir maqolasida, hech bo‘lmasa, bir matniy yangilik keltirishga intildi, boshqalar ko‘rmagan qay bir manbani tilga oldi. Xullas, u Navoiy dahosidan nima uqqan bo‘lsa, Ahmad Yassaviy ta’biri bilan ifodalaganda, “ani olamga aytib” keldi.

Suyima G‘aniyevaning shaxsiy kutubxonasida boshqa navoiyshunoslarda topilishi amrimahol bo‘lgan, xususan, xorijiy Sharq mamlakatlarida chop etilgan noyob kitoblar juda ko‘p edi. Bir kuni qo‘ng‘iroq qilib, Fariduddin Attor qalamiga mansub “Mantiq ut-tayr” dostonining Tehronda ilmiy izohlari bilan chop etilgan nashri kaminada bor-yo‘qligini surishtirib qoldi. Chunki “Lison ut-tayr”ni “Mantiq ut-tayr”ga qiyosan o‘rganayotganimni bilar edi. Boshqa matbaa nusxalari bor-u, bu mukammal nashri yo‘q edi. Shuni berib turdi. Nusxa ko‘chirib oldim. Rosti, kamdan kam odamda bunday saxovatni ko‘rasiz.

1987–2003-yillari navoiyshunoslik tarixida ilk bor buyuk shoir va mutafakkir asarlari to‘liq chop etildi. “Mukammal asarlar to‘plami” deb nomlangan 20 jildlik chiqdi. Muallifning biror asari u yoqda tursin, hatto biror so‘zi ham tushirib qoldirilmadi. Ana shu ulkan nashr jildlarining tahrir hay’ati a’zolaridan biri – Suyima G‘aniyeva. Bundan tashqari, jildlarni chop etishda uning katta hissasi bo‘ldi.

Bularning bari aytishgagina oson ishlar. Chunki arab yozuvi asosidagi qo‘lyozma matnini kirill yozuvi asosidagi alifboga o‘girishning o‘z mashaqqati mavjud.


Biz tengi navoiyshunoslar uchun oldingilar, ya’ni salaflarimiz juda katta poydevor qo‘yib ketishdi. Ular davrida bu buyuk zot asarlari zamonaviy alifboda to‘liq chop etilmagan edi. Ular shu ishni bajardi. Bu oson kechmadi, albatta. Chunki qo‘lyozmalardan erinmay, ya’ni harfma-harf transkripsiya qilish lozim edi.

“Olim bo‘lsang, olam seniki”, degan ajoyib maqolimiz bor. Chindan, opa ilmi tufayli Yer yuzining ko‘p mamlakatlariga borib keldi. Qadami qayerga yetmasin, milliy merosimiz namunalarini izladi, topdi va nusxalarini yurtimizga olib ham keldi. Masalan, Navoiy “Kulliyot”i uchun muqaddima tarzida bitgan “Munojot”, shoirning o‘zi ko‘chirgan qo‘lyozma devoni, uning shaxsiy muhri aynan shu olima tufayli ilmiy muomalaga kiritildi.

Bir narsa haqiqat: Navoiy ijodi ummoniga bir sho‘ng‘igan haqiqiy tadqiqotchi endi umrining so‘ngiga qadar o‘z-o‘ziga: “Bundan keyin nima ish qilishim kerak?” deb savol berib o‘tirmaydi. O‘rganaveradi. Yangilik ustiga yangilik izlayveradi.

Suyima G‘aniyeva shunday yashadi. Uning mamlakatimizdagi qalamkashlar orasida O‘zbekiston Qahramoni bo‘lgan hozircha yagona ayol ekani ham bejiz emas.

Sultonmurod OLIM



“Hayotning har lahzasi go‘zal,
Umrning har dami g‘animat.”

Anvar OBIDJON

JAHON AYVONIDA

BOSH VAZIR QAYTA SAYLANDI

Yaponiya parlamentida hukumatning yangi rahbari uchun ovoz berish jarayoni bo‘lib o‘tdi. Unda hukmron Liberal-demokratik partiya raisi Sanae Takaichi qonunchilar tomonidan Yaponiyaning 105-bosh vaziri etib saylandi. Bu haqda “Xinhua” xabar berdi.



Shu kuni chaqirilgan navbatdan tashqari parlament sessiyasida quyi va yuqori palatalar bosh vazirni tayinlash bo‘yicha alohida-alohida ovoz berdi. Vakillar palatasida Takaichi birinchi turning o‘zidayoq 354 ta ovoz bilan g‘alabaga erishdi. Uning asosiy raqibi – muxolifatdagi “Markazchi islohotlar ittifoqi” rahbari Junya Ogava 50 ta ovoz oldi.



LUKASHENKOGA SANKSIYA

Ukraina prezidenti Vladimir Zelenskiy Belarus yetakchisi Aleksandr Lukashenkoga qarshi sanksiyalar joriy etdi, bu haqda Zelenskiy o‘zining Telegram kanalida ma’lum qildi.

“Aleksandr Lukashenko anchadan beri Belarus suverenitetidan o‘z shaxsiy hokimiyatini ustun qo‘ymoqda va rossiyaliklarga sanksiyalarni chetlab o‘tishda yordam bermoqda”, deb yozadi u.

AMALDORLAR UCHUN CHEKLOVLAR

Qirg‘iziston prezidenti Sadir Japarov “Korrupsiyaga qarshi kurash to‘g‘risida”gi qonunni imzoladi. Bu haqda “24.kg” xabar berdi.



Qonunga ko‘ra, endilikda amaldorlar xorijiy banklarda hisob raqam ocha olmaydi (ayrim rasmiylar bundan mustasno). Shuningdek, amaldorlar qarindoshlari biznesiga ko‘maklasha olmaydi, ular faoliyatiga doir kompaniyalar bilan ish qilolmaydi, davlat resurslarini shaxsiy maqsadda ishlata olmaydi va protokol sovg‘alaridan tashqari sovg‘a olishi mumkin emas.

OPERATSIYA BO‘YICHA TAQIQ



Afg‘onistondagi “Tolibon” hukumati o‘quv shifoxonalarida operatsiya jarayonida erkak va ayol tibbiyot xodimlarining birga ishlashini taqiqlash bo‘yicha ko‘rsatma berdi. Bu haqda “Afganistan Internatioal” ma’lum qilmoqda.

Xabarga ko‘ra, jarrohlik amaliyotidagi shifokorlar faqat erkaklardan yoki faqat ayollardan iborat bo‘lishi kerak – aralash xodimlarga ruxsat berilmaydi. Shuningdek, jarrohlik uchun xodimlarni tanlashda bemorning jinsi inobatga olinmaydi.



G‘AZO QURBONLARI SONI OCHIQLANDI

Isroilning G‘azo sektorida olib borgan harbiy harakati talafoti avvalgi rasmiy ko‘rsatkichlardan ancha yuqori ekanligi aniqlandi.

Dunyoning nufuzli tibbiyot jurnallarida e’lon qilingan mustaqil tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, 2025-yil boshiga kelib “zo‘ravonlik tufayli o‘lim” holatlari soni 75 mingdan oshgani tasdiqlandi.

AMALDORLARGA CHEKLOV KUCHAYTIRILDI

Xitoy hukumati korrupsiyaga qarshi kurash doirasida oila a’zolari xorijda istiqomat qiladigan amaldorlar ustidan nazoratni yanada kuchaytirdi. Bu haqda South China Morning Post xabar berdi.

Ma’lum qilinishicha, 2025-yilning boshidan buyon davlat idoralari va kompaniyalarida yuqori martabali rahbarlarning xorijiy aloqalarini tekshirish bo‘yicha keng ko‘lamli taftishlar o‘tkazilmoqda.

MILLAT FIDOYILARI

FIKR UCHUN JAZO

Donishmand Yo‘llug‘ tegin shunday bitgan: “Avlodlarning birinchi burchi o‘z ajdodlarini unutilishdan saqlab qolishdir. O‘shanda shafqatsiz va qudratli vaqt ular ustidan hukm yurita olmaydi”. Darhaqiqat, ajdodlar nomini xotirlash millatni ulug‘laydi, ayniqsa, asossiz qatag‘on qilingan, taqdiri uzoq yillar noma’lum qolgan shaxslar, jadid bobolarimiz or-nomusi, qadr-qimmati, pokiza nomlarini tiklash bugungi kunning muhim ma’naviy vazifalaridan sanaladi. Ana shunday fojiali taqdir egalaridan biri – qatag‘on girdobiga tortib ketilgan Nizom Qoziyev.



Nizom Qoziyev 1902-yili Andijon shahrining Namuna mahallasida tug‘ilgan. “Otam haqida ko‘p ma’lumotga ega emasman, – deydi qahramonimiz o‘z ko‘rsatmalaridan birida. – Chunki u mening bolaligimda vafot etgan, akalarimning va otamni yaqindan tanigan kishilarning aytishiga qaraganda, otam Madamin qozi inqilobdan avvalgi vaqtlarda Andijon shahrida taniqli diniy ulamo va shariat qozisi bo‘lgan”. Shu ma’lumotning o‘ziyoq Nizom Qoziyev taqdiriga doxil ijtimoiy muhitni anglashga yordam beradi. Inqilobdan keyingi yillarda ulamolar va diniy tabaqaga mansub oilalarning mavqeyi keskin o‘zgarib, ularning ko‘pchiligi iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan tang ahvolga tushib qoladi. Otasi Madamin qozining vafoti, davrning beqaror sharoiti natijasida ro‘zg‘or yuki og‘irlashib, bolalar tirikchilik tashvishlari bilan erta to‘qnash keladi.

Nizom Qoziyev onasi qaramog‘ida ulg‘aydi. 1921-yilga dovur boy xo‘jaliklarda yollanib ishladi. Aslida, bunday holat inqilob va fuqarolar urushi yillarida Andijon shahrida ko‘plab oilalar duch kelgan ijtimoiy manzarani aks ettiradi. Oila tayanchini yo‘qotgan xonadonlarda endi bolalar tayanchga aylangan, o‘qishdan avval ishlashga majbur bo‘lgan.

Qoziyev keyinchalik tergovda bildirib o‘tganidek, ularga otadan hech qanday mol-mulk meros qolmagan, hatto oila otasi yashagan uydan ham chiqarib yuborilgan. Mehnatdan ortib, madrasa va jadid maktablarida ta’lim olgan, shuningdek, hisobchilik kurslarini tugatgan Nizom Qoziyev keyinchalik Andijon tumanidagi Kuybishev nomli kolxozda buxgalter bo‘lib ishlaydi. Oilasi ham katta edi – turmush o‘rtog‘i va farzandlari bilan tinch mehnat qilib yashashni maqsad qilgan bu inson mahalliy jamoat orasida savodli mutaxassis sifatida tanilgan. Biroq 1937-yilda mamlakatda boshlangan siyosiy qatag‘onning yovuz changali Andijonga ham yetib keldi. O‘sha yillarda insonning ijtimoiy kelib chiqishi, jadid maktablarida o‘qigani yoki ayrim masalalar bo‘yicha mustaqil fikr bildirgani ayblov uchun yetarli sababga aylanar edi.

1937-yil 26-avgust kuni Nizom Qoziyev hibsga olinadi. Bu hol oila hayotiga og‘ir zarba bo‘ldi: besh nafar farzand otasiz qolib, oila uzoq yillar noaniqlik va xavotirda yashashga majbur bo‘ldi. Tergov jarayonida Nizom Qoziyevdan Andijonda inqilob va fuqarolar urushi yillarida faoliyat ko‘rsatgan guruhlar haqida ma’lumot berish talab qilinadi. U o‘z ko‘rsatmasida 1918–1922-yillarda shaharda turli siyosiy to‘planishlar bo‘lganini eshitgani, biroq o‘sha paytda yosh bo‘lgani sababli, ularning nomi va faoliyatini aniq bilmasligini ta’kidlaydi. Tergov materiallarida esa uning bu guruhlar bilan shaxsiy aloqasi bo‘lgan-bo‘lmaganidan qat’i nazar, ayrim ishtirokchilarni tanishi va ular haqida ma’lumot bergani “aloqadorlik” sifatida talqin qilinadi.

Keyingi ma’lumotnomalar va chaquv materiallarida Qoziyevning xizmat joyi, ta’lim olgan muhiti va tanishlar doirasi yanada batafsil qayd etilib, uning jadid maktablarida o‘qigani, diniy ulamo oilasidan ekani va mahalliy jamoa orasida faol muloqotda bo‘lib kelgani alohida urg‘ulanadi. Ayniqsa, suhbatlarda u shaharda ilgari mavjud bo‘lgan tashkilotlar haqida gapirgani, tanish bo‘lgan shaxslarning ismlari tilga olingani ham tergov hujjatlariga “dalil” sifatida kiritiladi.

Bundan tashqari, uning kolxoz muhitida aytgan ayrim fikrlari ham ayblovlarni kuchaytirishga xizmat qildi. Masalan, uning kolxoz ishchilari orasida hazil tariqasida “ovqat yeyishdan oldin Qur’on o‘qish kerak va har payshanba kuni Qur’on o‘qish shart”, deb aytgan gapi tergov hujjatlarida “sovet tuzumiga zid qarashlarni targ‘ib etuvchi, diniy kayfiyatlarni qo‘zg‘atishga qaratilgan chiqish” sifatida baholanadi. Yoki 1936-yil may oyi oxirlarida choyxonada “o‘zbeklar orasidan kadrlarni yetishtirib chiqarishimiz kerak, hozirgi vaqtda ruslar barcha ishlarni egallab oldilar”, deb aytgani tergovda jamoat orasida mavjud tartiblarga shubha uyg‘otuvchi fikr sifatida talqin qilinadi. Shu tariqa, Nizom Qoziyev ishi bo‘yicha ayblovlar bosqichma-bosqich shakllantirib boriladi.


1937-yil 11-noyabrdagi tergov jarayonlari Nizom Qoziyev ishida hal qiluvchi bosqichlardan biri bo‘ldi. Bunda tergovchilar uni turli aksilinqilobiy tashkilotlarga a’zolikda gumon qilib, ayblov doirasini kengaytirishga urinadi. Undan “Turon” va “Milliy ittihod” tashkilotlari bilan aloqadorlik haqida so‘ralganda, Nizom Qoziyev mazkur tashkilotlarga a’zo bo‘lmagani, faqat o‘tkazilgan ayrim mashg‘ulotlarni kuzatganini bildiradi. Ammo o‘sha yillar amaliyotida bunday izohlar inobatga olinmas, gumonning o‘zi ayblovni saqlab qolish uchun yetarli hisoblanardi.

Navbatdagi chaquv materiallarini aynan keltiramiz: *“Qoziyev Nizom 1937-yil avgust oyida Kuybishev nomli kolxoz choyxonasi oldida shunday dedi: “Fayzulla Xo‘jayev va boshqalar tengi yo‘q ishchilardir, ularni nohaq ravishda ishdan bo‘shatishdi va partiyadan o‘chirishdi”, “Kolxozlarda ishchilar mehnatdan ezilib ketdi, kechasi-yu kunduzi ishlashlariga qaramasdan, hatto kiyim sotib olishga ham pullari yo‘q. Sovet hokimiyati dehqonlarga bug‘doy bermayapti, kolxozchilar och qolmoqda, do‘kon va bozorlarda hech qanday mahsulotlar yo‘q, gazetalarda faqat yolg‘on ma’lumotlarni yozishmoqda”.* Natijada 1937-yil 13-noyabrda Ichki ishlar xalq komissarligi uchligi qarori bilan Nizom Qoziyev “sovetlarga qarshi aksilinqilobiy faoliyat”da ayblanib, 10 yil muddatga mehnat-tuzatuv lageriga hukm qilinadi va jazo muddati 1937-yil 26-avgustdan hisoblanadi.

Oradan yillar o‘tsa-da, uning taqdiri mavhumlikda qoldi. Turmush o‘rtog‘i Raisa Valiyevna yillar davomida adolat so‘rab turli idoralarga murojaat qildi. Arizasida erining ayblov e’lon qilinmasdan hibsga olingani, shundan so‘ng dom-daraksiz ketganini bildirib, uning tirikligi yoki qayerda ekani haqida ma’lumot berishlarini so‘raydi. Oradan qariyb chorak asr o‘tgach, 1961-yil 4-fevralda Nizom Qoziyev rasman oqlanganiga qaramay, uning halok bo‘lgani va yoki otib tashlangani yuzasidan ma’lumotlar hanuzgacha to‘liq aniqlanmagan. Qatag‘onning yana bir og‘riqli jihatlaridan biri ham shu.

Rustambek SHAMSUTDINOV,
tarix fanlari doktori,
professor

AZIZ XOTIRA



QATAG‘ON QURBONLARI

(Davomi. Boshlanishi o‘tgan sonlarda).

Porso Xo‘jayev – 1877-yili Buxoro shahrida tug‘ilgan. “Milliy ittihod” tashkiloti a’zosi o‘laroq, uning yig‘ilishlarida faol qatnashganlikda, sovet hokimiyatiga qarshi kurashganlikda, aksilinqilobiy, millatchi tashkilotlar rahbarlari bilan aloqada bo‘lib, targ‘ibot olib borganlikda ayblangan. P.Xo‘jayev sovet hukumati tomonidan O‘zSSR Jinoyat kodeksining 60–67-moddalarida ko‘rsatilgan jinoyatlarda aybdor deb topilib, otuvga hukm qilingan. Hukm 1937-yil 25-oktyabrda Toshkentda ijro etilgan. Porso Xo‘jayev 1962-yil 26-noyabrda oqlangan.

Mo‘minjon Hakimov – 1896-yili Andijon shahrida tug‘ilgan. Jamg‘arma kassasida g‘aznachi bo‘lib ishlagan. 1929-yil 6-noyabrda qamoqqa olingan. Namangandagi “Milliy istiqlol” tashkiloti a’zosi bo‘lgan. Usmon Akromiy tomonidan unga berilgan maxfiy dasturni o‘zida saqlagan. OGPUning 1931-yil 25-apreldagi qarori bilan RSFSR Jinoyat kodeksining 58-moddasi 2-,4-,10-bandlari bilan ayblanib, 10 yil konslagerga hukm etilgan. 1989-yil 30-martda reabilitatsiya qilingan.

Yoqub Omon – 1903-yili Namangan shahrida tug‘ilgan. “Yangi Farg‘ona” gazetasida tilmochlik qilgan. “Milliy istiqlol” tashkiloti rahbariyatining ko‘rsatmasi bo‘yicha Sovet hokimiyatini qurolli kurash va intervensiya yo‘li bilan ag‘darish maqsadini olib borganlikda, “Botir gapchilar” faoliyatiga rahbarlik qilganlikda, Qo‘qon bosmaxonasidagi ishchilar orasida aksilinqilobiy ishlar olib borganlikda, paxtachilik bo‘yicha dasturni barbod qilishga qaratilgan ishchi-dehqonlarni qo‘llab-quvvatlaganlikda ayblangan. U 1930-yil 31-yanvarda hibsga olingan. RSFSR Jinoyat kodeksining 58-moddasi 4-bandi va 10-moddasiga binoan OGPU kollegiyasining 1931-yil 25-apreldagi yig‘ilishida 10 yil muddatga kontslagerga hukm etilgan. Yoqub Omon 1989-yil 4-aprelda reabilitatsiya qilingan.

Turg‘un Parpiyev – 1908-yili Qo‘qon shahrida tug‘ilgan. O‘zSSR Lenin komsomoli ittifoqi a’zosi bo‘lgan. Farg‘ona shahridagi pedagogika texnikumida o‘qituvchi bo‘lib ishlagan. 1930-yil 31-yanvarda qamoqqa olingan. O‘zbek pedagogika texnikumidagi yoshlar orasida millatchilik ishlarini olib borishda, “Ko‘rkalamush” nomli o‘quvchilarning yashirin gazetasini tashkil etishda, uning atrofiga millatchi kayfiyatdagi yoshlarni birlashtirishda va “Botir gapchilar” tashkilotiga a’zo bo‘lganlikda ayblangan. RSFSR Jinoyat kodeksining 58-moddasi 4-bandi va 11-moddasi asosida 1931-yil 25-aprelda OGPU kollegiyasi tomonidan 5 yil muddat bilan konslagerga surgun etilgan. 1989-yil 4-aprelda reabilitatsiya qilingan.


G‘ulom Ikromov – 1884-yili Toshkent shahrida tug‘ilgan. O‘zbekiston Kompartiyasining sobiq a’zosi. Hunarmandchilik sanoat uyushmasi raisi bo‘lgan. 1930-yil 17-iyunda qamoqqa olingan. Avvalda Toshkent “Uchligi” va bir vaqtning o‘zida O‘zKompartiya a’zosi bo‘la turib, “Milliy istiqlol” faoliyatiga rahbarlik qilganligi arxiv hujjatlarida qayd etilgan. Munavvar qori Abdurashidxonov bilan bog‘lanishga uringanlikda, Afg‘oniston konsulligi bilan aloqa o‘rnatganlikda, mazkur kollektorlarga tashkilotning moliyaviy resurslarini hal qilish maqsadida o‘zi mas’ul bo‘lgan mehmon uyidan boshpana berishga rozi bo‘lganlikda ayblanib, RSFSR Jinoyat kodeksining 58-moddasi 3-, 4-, 6-bandlariga asoslanib, 1931-yil 25-aprelda OGPU kollegiyasi tomonidan otuvga hukm etilgan.

Azizbek MAHKAMOV,
tarix fanlari bo‘yicha
falsafa doktori

Nigoraxon AKBAROVA,
muzey ilmiy xodimasi


(Davomi kelgusi sonda).

QAYTA NAZAR



ник — сумвар, вторник — мангалвар, среда — будвар, четверг — брихаспатвар, пятница — шукрвар].

В наших землях принято делить сутки на двадцать четыре части, каждую из которых называют часом, а каждый час делят на шестьдесят частей и называют каждую из них минутой, так что в сутках получается четыреста сорок минут. В течение минуты можно приблизительно ||



328 • Бобурнома

Ҳиндустонликлар кунларга ҳам ном қўйганлар: шанба – саничар; якшанба – айтвар, душанба – сумвар; сешанба – мангалвар; чоршанба – будвар; пайшанба – брипаствар; жума – сукрвар.

Бизнинг ўлкаларда кеча-кундузни йигирма тўрт қисмга ажратиб, ҳар бир қисмини соат дейишади ва ҳар соатни олтмиш қисмга бўлиб, ҳар бирини дақиқа деб атайдилар. Бир кеча-кундуз минг тўрт юз дақиқа (минут) бўлади. Бир дақиқанинг миқдори тахминан олти марта «Фотиҳа»ни («Фотиҳа» сурасини) «бисмиллоҳ» билан ўқиш вақтига тенг келади, бир кеча-кундуз эса «Фотиҳа»ни «бисмиллоҳ» билан саккиз минг олти юз қирқ марта ўқиш вақтига тенг келади.



YO‘QOLGAN “QIRQ DAQIQA”NI QIDIRIB...

“Jadid”ning kechagi sonida “Boburona daqiqa” nomli mitti maqolam bosildi. Chiqqan maqolamni ba’zan qayta o‘qish odatim bor. Bu safar ham shunday bo‘ldi. O‘qidim-da, bir nuqtada to‘xtadim. Fizika-metematika muallimi rahmatli otamdan o‘tgan odat: son, raqam, sana, soat, daqiqa va ularning to‘g‘ri-noto‘g‘riligini gohida tekshiraman. Maqolani tahririyatga yuborishdan avval qilishim lozim bo‘lgan ishni keyin qildim...

Bobur hazratlari aytgan bir kecha-kunduz, ya’ni yigirma to‘rt soatda qancha daqiqa borligi hisob-kitobini qo‘lmiyaga soldim. Yigirma to‘rt soatni oltmish daqiqaga ko‘paytirdim. Bir ming to‘rt yuz qirq (1440) soni paydo bo‘ldi. Men esa maqolada “ming to‘rt yuz” tarzida “qirq”ni qirqib yozgan ekanman. O‘zimdan xijolat bo‘ldim. Halovatim yo‘qoldi. Darhol “Boburnoma”dan ko‘chirma olganim o‘sha sahifani izlab topdim. Mendan e’tiborsizlik o‘tibdi, hisob-kitobni, ko‘paytiruv amalini avval bajarishim lozim edi. Ammo kitobda xato bor ekan. Raqamlar men yozgancha “ming to‘rt yuz daqiqa” tarzida turibdi. Mana, o‘sha ko‘chirma: “Nechukkim, bizning viloyatlar istilohida kecha-kunduzni yigirma to‘rt qismat qilibturlar, har qaysisini bir soat debturlar va har soatni oltmish qismat qilibturlar, har qaysisini bir daqiqa debturlarkim, bir kecha-kunduz **ming to‘rt yuz** daqiqa bo‘lg‘ay...” Bunda “qirq” kam, bunda “qirq daqiqa” yo‘q. Izlab ketdim. “Boburnoma”ning 2024, 2019, 1989, 1966 va hatto 1949-yilgi nashrlarida ham “ming to‘rt yuz” soni bor, ammo “qirq”i kam, hisobga “qirq daqiqa” yetmay turibdi. 1992-yilda bosilgan rus tilidagi tarjimasiga qarasam, o‘zbek tilidagi nashrlarda “qirq” yetmay turgan bo‘lsa, unda “to‘rt yuz qirq daqiqasi” bor, ammo endi “ming” yo‘q: “В наших землях принято делить сутки на двадцать четыре части, каждую из которых называют часом, а каждый час делят на шестьдесят частей и называют каждую из них минутой, так что в сутках получается **четыреста сорок** минут” (299-bet). Mana, sizga arifmetika! Ana sizga kashfiyot – evrika!

Azizlar, o‘zbek tilida men ko‘rgan va ko‘chirgan matnda “qirq daqiqa” xato bo‘lsa, rus tilidagi tarjimasida “ming”ga adashilibdi. Bir sutkani “to‘rt yuz qirq” minut deb berishibdi. Ammo davomidan yozilgan “Fotiha”ni “Bismilloh” bilan olti marta o‘qishga doir hisob-kitob o‘zbek tilidagi nashrida ham (“bir kecha-kunduz sekkiz ming olti yuz qirq navbat “fotiha”ni “bismillo” bila o‘qug‘uncha bo‘lg‘ay”), rus tilidagi tarjimada ham (“таким образом, за сутки прочтешь фатиху с бисмиллой восемь тысяча шестьсот сорок раз”) deb to‘ppa-to‘g‘ri yozilibdi. Undan oldingi hisob-kitobda, Hazrati Boburning emas, bizning, tarjimachi va tabdilchilarning “aybg‘inasi” bor, deb o‘yladim. Qomusiy bilimga ega Bobur oddiy ko‘paytma amallarida xato qilishi aslo mumkin emas. Qolaversa, “qo‘yni to‘la sir bo‘lgan” (M.Yusuf) matematika faniga doir oddiy amallarda turli taxminiy talqin va tahlillar o‘tmaydi. Matematika kalning telpagi yoki manqaning miltig‘i emas. Bu gap sizga tushunarsiz, bilaman. Ammo mavridi kelib, sun’iy, beo‘xshov o‘xshatish va qiyoslar haqida biror maqola yozganimda bu rivoyatning tafsilotini bayon qilsam kerak. Hozir esa...

Nima qilsa bo‘ladi? O‘ylab-o‘ylab manbalar bilimdoni Olim Oltinbekka qo‘ng‘iroq qilsam: “O‘zbek mumtoz yozuvidagi nashrini, faksimilesini topmoq kerak”, dedi. Maqsad ham shu; o‘rinli maslahat. Shu orada nodir kitoblar xazinaboni, kitobxo‘r andijonlik yosh olim Iskandar Matg‘oziyev yodimga tushdi. Dardimni yozdim. Baraka topsin. Oradan bir daqiqa o‘tmay manba keldi. 1857-yili rus mustashriqi Nikolay Ilminskiy Qozon shahrida Qozon universiteti bosmaxonasida arabiy – o‘zbek mumtoz yozuvida nashr qildirgan noyob “Boburnoma” qo‘limga yetib keldi. Tillo topgandek quvondim. Elektron shakldagi manbadan izlay boshladim. Mana, 1525-yilgi hind zamini tafsilotlari... Mana, hindlarning hafta kunlarini nomlashlari va undan keyin yurakni hovuchlab, “Boburdan xato o‘tmagan bo‘lsin”, degan yuz ming tavallo bilan 374-betini sekin-sekin harfma-harf sinchiklab hijjalab o‘qiy boshladim: “...har soatni oltmish qismat qilibturlar, har qaysisini bir daqiqa debturlarkim, bir kecha-kunduz **ming to‘rt yuz qirq** daqiqa bo‘lg‘ay”... Mana, sizga yo‘qotganim – “qirq” soni. Yo‘qotilgan “qirq daqiqa” bir yuz yetmish yil narida N.Ilminskiy tomonidan bosilgan “Boburnoma” nusxasidan topildi!

Kimgadir bu bitta so‘z, bitta raqam – son arzimagan bo‘lib tuyulishi mumkin, biroq menga juda-juda muhim ko‘rindi.

Darvoqe, bu “qirq” soni boshqa tilga tarjimalarda ham o‘tib ketgan bo‘lsa kerak, degan o‘yga bordim. Ularni ham bir taqqoslash kerakdir balki.

Tekshiruvlarim, izlovlarim tuganchiga yetdi. Yo‘qolgan “qirq”ni qidirib topish ortidan ikki xulosa chiqardim.

Birinchidan, shu “qirq” soni “Boburnoma”ning o‘zbek tilidagi qayta nashrlarida, albatta, o‘z joyiga qo‘yilmog‘i lozim.

Ikkinchidan, adabiyotchi, filolog-matnshunos, o‘zbek adabiyoti manbalari tarjimoni, muharrir va musahhihlar uchun ham arifmetik to‘rt amalni bilish vojib. Bu malomat va tanbeh boshqalarga emas, balki, eng avvalo, o‘zimga tegishlidir.

Bahodir NURMUHAMMAD

SAYOHATNOMA

“JAYHUN ORTIDAGI O‘ZBEK BOLASI...”



“BOBURNI SEVGUCHILAR KUNI”

14-fevralda Kobul ko‘chalari guldasta ko‘targan, yuraksimon sharlar tutgan kishilarga to‘lib ketdi. Hamma hazrat Bobur tavalludining 543 yilligini ko‘tarinki kayfiyatda nishonlayotgandek tuyuldi menga.

Bir guruh yoshlar “Bog‘i Bobur”ga yig‘ildi. Birov hindcha gulchambar ko‘targan, birovi ulug‘ shoirning yangi shohona suratini namoyishkorona quchgancha mahzun odimlagan (albatta, uning ham gardishi gullar bilan bezalgan), birisi qabrtosh usti va atrofiga atirgul barglarini sochala qilgan... Bosh kiyimlar



rango-ranglik kasb etgan: hindiy salla, afg‘oncha kallapo‘sh, pushtuncha shol qalpoq, to‘rli-to‘rli kufi, qorako‘l qalpoq, katak-katak lungi, chitrali pakol, hazora do‘ppisi, baloch salla, turkman telpak, imom salla, mamlakatning shimoliy hududlarida rasm bo‘lgan qizil rangli o‘zbek do‘ppisi ila – hammasi bir sag‘ana atrofida jam bo‘lib, uzundan uzoq qiroat qilishdi... Yana bir guruh xorijiylar bor edikim, ularni pokistonlik mo‘g‘ullar atab, alohida hurmat bajo keltirdilar. Mehmonlar “O‘tkan kunlar” filmidagi Otabekka o‘xshash kiyimda – biroz katta, mo‘ynali, oq tumoqni boshga qo‘ndirgan, egnida kurk, ya’ni, ichki tomoni qo‘zi terisidan ishlangan, usti jigarrang, silliq chopon kiyib edi. Muborak qabr atrofida yig‘ilganlar, avvalo, o‘zbekcha, keyin forsiy, dariycha uzundan uzoq nutq irod etdilar.

Shundan so‘ng, odmiroq to‘y-xonada O‘zbekistonning Kobuldagi elchixonasi va mahalliy o‘zbeklar tashabbusi bilan tashkil etilgan “Buyuk mutafakkirlarimizni eslab” nomli xotira kechasi o‘tkazildi. Unda muhtaram elchimiz – Oybek Usmonov ham ishtirok etib, ulug‘ ajdodlarimiz qoldirgan bebaho ma’naviy xazina haqida o‘z mulohazalarini bildirib o‘tdi va ayni damda ko‘p muhokamalarga sabab bo‘lgan Mozori Sharifdagi chorrahaga hazrat Alisher Navoiy nomi berilgani, u yerda o‘rnatilajak yodgorlikka tamal toshi qo‘yilgani bilan yig‘ilganlarni qizg‘in qutladi.

Tadbir o‘tkazilayotgan joyga kiraverishda ikkala dahoning turli tillar va yozuvlarda chop etilgan asarlari, O‘zbekistonda faoliyat olib boradigan oynoma va haftalik nashrlarning Navoiy va Boburga oid sonlari qo‘yilgan.

Xotira kechasida mahalliy va xorijiy ommaviy axborot vositalari xodimlari ham ishtirok etib, mazkur yig‘indan maxsus barqnoma (ko‘rsatuv) tayyorladi.

Ertasi kuni Faryob viloyati Andxo‘y tumanida joylashgan “Yangi yo‘l” xususiy o‘rta ta’lim maktabi tashabbusi bilan xuddi shu mazmundagi yirik tadbir bo‘lib o‘tdi. Ma’lumot uchun, mazkur maktab Afg‘onistondagi o‘zbek tilida faoliyat olib boradigan sanoqli o‘quv muassasalaridan biri hisoblanib, unda ming ikki yuz o‘quvchi tahsil oladi. Farzandlari ona tilida o‘qishini istagan ota-onalar oyiga ming afg‘oni (qariyb ikki yuz ming so‘m) to‘lov qiladi. Maktab asoschisi Zikrillo Rahimiy bizni maktabdagi sharoitlar bilan tanishtirdi. U yerda barcha zamonaviy fanlar maxsus o‘quv qurollari yordamida o‘rgatiladi. Direktor o‘rinbosari Asadullo Bashoshning so‘zlariga ko‘ra, bu yerda dars beradigan o‘qituvchilarning aksariyati, xususan, o‘zi ham bir necha yillar davomida Toshkent va Termiz shaharlarida tahsil olgan va shuning uchun ham maktabdagi ta’lim sifatini imkoni boricha O‘zbekiston darajasiga olib chiqishni reja qilishgan.

Shu maktab o‘quvchilari ishtirokida o‘tkazilgan mazkur tadbirga puxta tayyorgarlik ko‘rilgani sezildi. Adabiy-ma’rifiy kechadan xabar topgan keksa-yu yoshga kattagina to‘yxonadagi o‘rinlar yetmay qoldi. Shunday bo‘lsa-da, qariyb uch soat davom etgan anjumanni tik oyoqda ko‘rganlar ham anchagina edi. Avvalroq, mamlakatning turli shaharlarida “O‘zbek tili va mutafakkirlari uchun tadbir o‘tkazishda hech kim faryobliklarga yetolmas”ligi haqida ko‘p eshitgandim. Gaplari rost ekan. Yetti yoshdan yetmish yoshgacha Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur g‘azallarini aruz qoidalariga muvofiq tarzda yoddan o‘qigan adabiyot ixlosmandlarini ko‘rib ko‘zim quvnadi. Har qancha kuy-qo‘shiq, she’r aytish ta’qiqlangan bo‘lsa-da, bir davra bo‘lib, jo‘rlikda bobolarimiz satrlarini kuylashdi. Mana buni nazm-u navo kechasi deydilar! Mana buni jasorat ataydilar!

Albatta, tadbirda boshlovchilik qilgan qizgina hali to‘qqizga to‘lmagani, ammo bo‘y-bastidan kattaroq ko‘ringani uchun tadbir tashkilotchilarni mahkamaga chaqirtirib, so‘roq-savol qilishgani haqida bu yerda yozib o‘tirishim shart emas...

“KOLUMBDA BOR ALAMIM MANIM...”

Orada qadimiy G‘aznaga borib kelishga ham ulgirdim. Kobuldan keta-ketguncha tog‘ ekan, usti-boshi qor ekan. Past-u baland, loy-u tuproq ko‘chalar oralab kutilgan manzilga yetdim.

Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al-Beruniy qadimgi Xorazmning Kot qishlog‘ida tug‘ilgan. U qomusiy olim bo‘lib, 150 dan ortiq asar yozgan. Xususan, astronomiya, matematika, geodeziya, tarix, etnografiya, tabobat kabi fanlarni chuqur bilgan. “Mineralogiya”, “Qonuni Mas’udiy”, “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”, “Hinduston” asarlari mashhur.

Tarixni ko‘ringki, hukmdorlar faqat tabiiy boyliklar ilinjida yoki xavfsizlik uchungina o‘zga yurtlarga yurish qilmas



ekan. Masalan, Mahmud G‘aznaviy yillar davomida o‘z saltanatida ham “Ma’mun akademiyasi” bo‘lishini juda-juda istagan va 1017-1018-yillarda qadimgi Xorazmga qo‘shin tortib, u yerdagi olimlarni majburiy tarzda poytaxtiga keltirgan. Ular orasida Beruniy ham bor edi. Keyinchalik buyuk olim g‘aznaviylar sultoni homiyligi ostida jahonning bir necha mamlakatlariga safar uyushtirib, ilmiy tadqiqotlar olib boradi. Birgina Beruniy emas, saroyda dunyoga mashhur “Shohnoma” muallifi – Firdavsiy, Beruniyning shogirdlari, xususan, Abu Nasr Mansur, o‘z davrning mashhur shoirlari Unsuriy va Asjadiy kabi olimu qalam ahli bir muddat yashab, ijod etgan. Hozir o‘sha saroy va qal’adan faqat tuproq tepaliklari va xarobalar qolgan. Unga ham mahalliy aholi uy qurib, hovli qilib olibdi.

“MANI YO‘QLAR KISHIM BORMU?”

18-fevral, chahorshanba, ramazon oyining birinchi kuni (Afg‘oniston mezoniga ko‘ra) Andxo‘ydan Tahhor sari yo‘lga tushdik. Safarning eng mashaqqatli qismi mutasavvuf shoir Boborahim Mashrab ziyorati bo‘ldi. Ko‘likda 600 km yo‘lni, 15 soatda bosib o‘tdik.

Tong-sahar otlandik. Qarshimizda bopkashday qo‘yosh zamin uzra ilk nurlarini sochmoqda edi. Peshinga yaqin Xulum dovoniga yetdik. Mo‘tar (mashina)dan tushib, sahrosifat yalanglik va mayin qumli tepaliklar uzra esayotgan shiddatli shamolga quloch yozdik. Faryobliklar birdan chang-to‘zon ko‘tarilsa, “Nima balo, Xulum devonani shamoli keldimi”, deyisharkan.

Ravon yo‘llar tugab, avval Hindikush tizmasining shimoliy tarmoqlari, keyin Xo‘ja G‘or va Farxar vodiysi tog‘lari ko‘rindi. Va to‘satdan... yo‘l yo‘qolib qoldi. Lalmikor yerlarda tarvaqaylab ketgan yo‘lsimon tarmoqlarda mashinalar salkam o‘mbaloq oshib yuribdi. Bir keskin balandlab ketamiz. Tushishda ulovimiz yon tomonga chunonam og‘adiki, hali-hali dumalab ketishdan beri bo‘lib yuramiz. Qo‘qqisdan qarshimizda ulkan jarlik paydo bo‘lib, oyoq ilgancha hay-haylab qolamiz. Adashganimiz alamidan achchiq tabassum qilib, ot boshini ortga buramiz. Tag‘in mehnat-u mashaqqat-u sarsonlig‘...

Qunduz viloyatiga yetganda qosh qoraya boshladi. Shu yerlardan boshlangan Xonobod, Oqtosh, Qunduz daryolari borib-borib Amudaryoga quyilarkan. Atrofda sholidan bo‘shagan yerlar, bug‘doy ko‘kargan ekinzorlar...

Tahhorga borganda “og‘iz ochar” boshlanib qoldi. Shu yerlik yo‘lboshchimiz kutib olib, bizni bir o‘zbekning iftoriga boshladi.

Dasturxon boshida yig‘ilganlar maqsadimizdan voqif bo‘lgach, takalluf ila “Oshdan oling, qarindosh! Sizni Shoh Mashrab mehmon qilyapti!” deyishdi... Bu yerlarda dasturxon ustiga oyoq bosib yurishga ijozat bor.

Mehmonlar orasidagi 5-6 yoshlar chamasidagi bola ko‘rpachadagi miltiqqa yopishdi. Chollar uning qurol-sevarligidan miriqib kulishdi. Qiziqqon bolakay ehtiyoti shart, o‘qdonni olib qo‘ymoqchi bo‘lgan otasi ustidan bobolarga shikoyat qildi. Yengil kulgi ko‘tarildi.

Duodan so‘ng qo‘zg‘aldik. Oldinda past-u baland va yo‘lsiz qishloqlar oralagan ikki soatlik yo‘l kutib turibdi.

Tungi soat o‘nlarda qadimiy Iskamish qishlog‘iga yetib keldik. Mahalliy qo‘mondon har ehtimolga qarshi bizga bir askar berdi. U esa Boborahim Mashrab nomi bilan ataluvchi ko‘cha va qabriston sari boshladi.

Bir yil avval qurilgan maqbaraga ming hayajon bilan kirdik. Mezbonlardan bu haqiqatdan ham Shoh Mashrab qabrimi deya qayta-qayta so‘radik. Ishontirish uchun, bino tepasidagi peshlavhaga fonar tutdilar.

Ko‘nglimiz bir yoqli bo‘lgach, ichkarilab, hazratimizni ziyorat etdik.

Qorong‘u bo‘lgani uchun sakkiz telefondan yorug‘lik tarqatib, tasvirga oldim. Shu tariqa “Safarnoma”m hayotimdagi bebaho kadrlar va xotiralar bilan boyidi.

Qaytdik. Shu bo‘yi Hayraton ko‘prigigacha tongotar gurung bo‘ldi. Ochig‘i, afg‘onistonlik o‘zbeklarning har biri umrida bir marta bo‘lsa ham O‘zbekistonni ko‘rish orzusida yashaydi. Yurtimizga tijorat yoki o‘qish maqsadida kelib-ketganlari u yerda doim maqtanib yuradi. Erkinligimiz, zamonaviy fikrlashimiz, diniy mo‘tadillik, madaniy-ma’rifiy tadbirlarimiz, kuy-qo‘shiq va xursandchilikka boy kunlarimizga havas bilan qaraydilar. Mamlakatimiz rahbarining xayrli tashabbuslari, yurtimizdagi ezgu amaliy ishlar, yangilanishlar, tadbirkorlik, ijodkorlik va shu kabi ko‘plab sohalardagi yutuqlarimiz haqida havas bilan gaplashishni xush ko‘rishadi. Ayollarga berilayotgan imkoniyatlar, xotin-qizlar ta’limi va erkinligini maqtagan insonlarni ko‘p uchratdim.


Umuman olganda, Afg‘oniston xalqi tinchlik va adolatni sevadi, qadrlaydi, dunyoning boshqa ellari kabi rivoj topishni chin dildan istaydi. Daryoning narigi tomonidan kelgan tildoshlarimizni afg‘on atashimiz ularni eng ko‘p ranjitarkan. Biz Amir Temur, Navoiy, Bobur davridan ancha avval ham shu tuproqlarda yashagan haqiqiy o‘zbeklarmiz, bizni o‘z nomimiz bilan atang deya yozg‘irgan ko‘p bo‘ldi.

“ISTARAM, YETSAM QUYUNDEK GULZORIM QOSHIG‘A...”

Ushbu safar menga nihoyatda ko‘p narsani o‘rgatdi. Avvalo, O‘zbekistonda tinch-osoyishta kechayotgan har kunimiz, o‘zimizda borini qadrlash va asrash shartligini chuqurroq angladim. Yurtimizda harakatchan, qonunga amal qilgan, niyati pok bo‘lgan har kim tilagan murodiga yetishi mumkin.

Jonajon O‘zbekiston tuproqlariga qayta qadam bosarkanman, qalbimda cheksiz hayajon va sevinch, fikrimda allaqanday yorug‘lik barq urdi. Ajdodlarimizdan meros qolgan muqaddas makonni asrab-avaylab, uning rivojida kichik bo‘lsa-da hissa qo‘shish eng oliy saodat ekanligini to‘la angladim!

Shahriyor SHAVKAT,
Andxo‘y – Tahhor – Termiz



> **Hayotning yagona mazmuni insoniyatga xizmat ko‘rsatishdan iborat.**
>
> **Lev TOLSTOY**

TILBILIM


“YETTI IQLIM”

IBORASINI BIRINCHI BO‘LIB KIM QO‘LLAGAN?

Biz iqlim so‘zini ko‘p ishlatamiz. Ayniqsa, keyingi paytlardagi iqlim o‘zgarishlari sabab bo‘lib, bu so‘z jonli tilda ham, ommaviy axbort vositalari tilida ham yanada faollashdi.

Xo‘sh, iqlim so‘zining tarixi qanday? Tilimizdagi noyob iboralardan sanalgan yetti iqlim birikmasi qanday paydo bo‘lgan?

Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” kitobining oxiridagi izohlarda shunday bir ma’lumot bor: ***“Iqlim – yunoncha klima – “og‘ish”*** **so‘zidan olingan. Ptolemey o‘z “Geografiya”sida Yer sharqiy yarimsharining shimoliy yarmini sakkiz iqlimga ajratgan bo‘lib, bu iqlimlar Yer ekvatoriga parallel zonalar edi (Muhammad al-Xorazmiy. Tanlangan asarlar. 250-bet). Lekin al-Xorazmiy o‘zi to‘plagan ma’lumotlar va mahalliy an’analarga asoslanib, iqlimlarning sonini bittaga kamaytiradi va fan tarixida birinchi marta adabiyotga yetti iqlim tushunchasini kiritadi”.**



“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da arab tilidan tilimizga kirgan iqlim so‘zi *“mintaqa”, “hudud”, “o‘lka”, “ob-havo”, “muayyan joyning o‘ziga xos, har yili takrorlanuvchi odatdagi ob-havo sharoiti”* ma’nolarida izohlangan. Bu izohda iqlim so‘zining arab tiliga yunon tilidan (klima) kirganligi aytib o‘tilgan.

“Navoiy asarlari lug‘ati”da iqlim so‘ziga shunday sharh bor: *mintaqa, qit’a,* (quruqlikning bir bo‘lagi. Hammasini yetti iqlim deganlar). Zahiriddin Muhammad Boburda ham bu so‘z shu mazmunda qo‘llangan.

Xo‘sh, *iqlim* so‘zining qadimgi turkiy tilda muqobili bo‘lganmi? Biz *tog‘ iqlimi, dengiz iqlimi* birikmalari o‘rnida *tog‘ havosi, dengiz havosi* birikmalarini qo‘llaymiz. Lekin *havo* so‘zi ham asli arabcha. Qadimgi turkiy til bilimdoni ustoz Hamidulla Dadaboyevdan bu haqda so‘radim. Hamidulla aka menga quyidagi ma’lumotlarni havola qildi: *Iqlim so‘zi adabiyotimizda ilk bor Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarida qo‘llangan. “Bu kitab qayu padshahqa ya iqlimqa tegdi ersa...” O‘zlashmaning ma’nosi Enasoy obidalari hamda Turfon matnlarida qayd etilgan yer sub / yer-suv birikmasi anglamiga muayyan darajada mos tushadi.* **“Qadimgi turkiy til lug‘ati” (DTS)da yer sub (yer-suv) “materik”, “Yer” ma’nosida izohlanadi. (257-bet)**

Demak, 783–850-yillarda yashab o‘tgan al-Xorazmiy yetti iqlim tushunchasini ilm-fandagi (arabcha) adabiyotlarga birinchi bo‘lib olib kirgan bo‘lsa, XI yuzyillikda yashab ijod etgan Yusuf Xos Hojib iqlim so‘zini turkiy tildagi yozma badiiy adabiyotga olib kirgan.

Eshqobil SHUKUR

Jadid
adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

Bosh muharrir:
Iqbol MIRZO

Muallif fikri tahririyat fikri bilan mos kelmasligi mumkin.

Tahririyatga yuborilgan maqolalar muallifga qaytarilmaydi va ular yuzasidan izoh berilmaydi.

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 195115 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Adadi – 18 727
Shundan:
Kirill yozuvida – 6 618
Lotin yozuvida – 12 109
Media kuzatuvchilar – 85 061
Buyurtma: G – 240.
Hajmi: 4 bosma taboq, A2.
Nashr ko‘rsatkichi – 222.
Tashkilotlar uchun – 223.
1 2 3 4 5 6

Mas’ul kotib: Shuhrat Azizov

Navbatchi muharrir:
Gulchehra Umarova

Sahifalovchilar:
Erkin Yodgorov
Nigora Tosheva



Manzilimiz:
Toshkent shahri,
Shayxontohur tumani,
Navoiy ko‘chasi, 69-uy

Telefonlar:
Qabulxona: (71) 203-24-20
Devonxona: (97) 745-03-69
jadidgzt@mail.ru (71) 203-24-17
Jadid_gazetasi@exat.uz

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.

Bosmaxona manzili:
Toshkent shahri,
Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti: 21:00
Bosishga topshirildi: 20:00

Sotuvda narxi erkin.

www.jadid.uz

Muassislar:

O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI

RESPUBLIKA MA’NAVIYAT VA MA’RIFAT MARKAZI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI

MILLIY MASS-MEDIANI QO‘LLAB-QUVVATLASH VA RIVOJLANTIRISH JAMOAT FONDI

“SHAHIDLAR XOTIRASI” JAMOAT FONDI